

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI
“IQTISODIYOT” FAKULTETI
«BUXGALTERIYA HISOB VA AUDIT» KAFEDRASI

“HIMOYAGA TAVSIYA ETILADI”

“BH va A” kafedra mudiri

_____ dots. O.Xushmuradov

“_____” _____ 2011 yil

“TASDIQLAYMAN”

“Iqtisodiyot” fakulteti

_____ i.f.d. A.Xurramov

“_____” _____ 2011 yil

**“Kredit munosabatlarini takomillashtirishda kredit ta’minotining ahamiyati”
(ATIB “Ipoteka bank” Qashqadaryo viloyati filiali misolida)
mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY
ISHI**

Bajardi:

“Moliya” yo‘nalishi bitiruvchi

IV-kurs M-40 guruh talabasi

_____ SH.Xudoyqulov

Ilmiy rahbar:

“Iqtisodiyot” fakulteti dekani

_____ i.f.d., prof.A.F.Xurramov

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o‘tdi
2-sonli 22 iyun 2011 yil

Qarshi-2011 yil

“Tasdiqlayman”
“BH va A” kafedrası mudiri
dots. O. Xushmuradov
“ _____ ” _____ 2011 yil

**Mavzu: Kredit munosabatlarini takomillashtirishda kredit ta’minotining
ahamiyati
(ATIB “Ipoteka bank” Qashqadaryo viloyati filiali misolida)**

Reja:

Kirish

I-bob. Tijorat banklarida kredit tizimini boshqarishning nazariy asoslari

- 1.1. Bank mablag‘larini iqtisodiyotning real sektoriga yo‘naltirish chora-tadbirlari
- 1.2. Bank kredit tizimini iqtisodiy mohiyati va inqiroz sharoitida uni boshqarishning nazariy asoslari

II-bob. Tijorat banklarining kredit portfeli tahlili

- 2.1. Tijorat banklari kredit portfeli deversifikatsiyalanganligini bank daromadlilikini ta’siri
- 2.2. Kredit riski darajasining tijorat banki portfeli samaradorligiga va uni optemallashtirishga ta’siri

III-bob. Jahon moliyaviy-iqtisodiy infirozi sharoitida banklarning kredit siyosatini takomillashtirish yo‘llari.

- 3.1. Jahon moliyaviy-iqtisodiy infirozining tijorat banklarining siyosatiga a’siri
- 3.2. Banklarda kredit takomillashtirish ta’minoti siyosatini yuksalishlari

Xulosa va takliflar

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Ilmiy rahbar:

i.f.d.A.F.Xurramov

M-40 guruh talabasi:

Sh.Xudoyqulov

Kirish

Mamlakatimizda iqtisodiyotining barcha sohalarida erkinlashtirish jarayonlari izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Respublikamiz Prezidenti ta'kidlaganidek "Bank tizimini rivojlantirish va mustahkamlash masalasi doimo e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda va bu o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Biroq bu boradagi ishlarni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish kerak. Nega deganda aynan banklar, ta'bir joir bo'lsa, butun iqtisodiyotimizni oziqlantirib turadigan qon tomirlari hisoblanadi, mamlakatimizning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligi ko'p jihatdan ularning samaraldi faoliyatiga bog'liq"¹.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy va kredit jamiyatining iqtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatmoqda. Hozirgi davrning rivojlanishi talabi moliyaviy imkoniyatlarni bilish bilan bir qatordan ulardan samarali foydalanishi ham talb qiladi. Shuningdek moliya-bank tizimi bozor munosabatlariga moq rivitshda tashkil etishda ham moliya-iqtisod mutaxassislar tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda.

"Bank bu jamiyatda mavjud bo'sh pul mablag'larini yig'adigan va ulardan mijozlar va bank manfaatini ko'zlab joylashtirish hisobkitob jarayonlarini amalga oshirish yo'li bilan daromad olib ishlaydigan korxona hisoblanadi.

Tijorat banklari ular qaysi mulk shaklidan qat'iy nazar xalq xo'jaligidagi pul mablag'larining harakatini tashkil etishda foyda olib ishlaydigan kredit muassasasi bo'lib hisoblanadi.

Banklarning kredit tizimini boshqarish samaradorligini pasayishi kredit portfeli sifatining yomonlashishiga va shuning asosida banklarning to'lovga qobilligi hamda likvidligini pasayishiga olib keladi.

Ayni vaqtda respublikamizda banklarning kredit tizimini samaradorligini oshirishda bir qator sezilarli muammolarning mavjudligi ko'zda tashlanmoqda. Jumladan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida respublikamizning bir qator banklarida muddati o'tgan kreditlarning jami kredit qo'yilmalari hajmidagi salmog'ining o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Bundan tashqari, ayrim tijorat banklarida kreditlarning bank aktivlari umumiy hajmidagi salmog'ining pasayishi kuzatilmoqda. Mazkur muammolar respublikamiz banklarini kredit tizimini boshqarishni takomillashtirish borasida respublikamiz banklarini kredit tizimini boshqarishni takomillashtirish borasida sezilarli muammolarning mavjudligidan davlat beradi.

Banklarda kreditlash faoliyatining samaradorligini oshirish masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar- V.Sengachov, Diana Maknoton, Jan Matuk, S.Fisher, K.Vaynke, K.Varetrop, O.Davrushin, L.Krasavina, A.Gryazanova, N.Sakolinskayalarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan.

Mamlakatimizda mazkur mavzuning alohida jihatlari SH.J.Abdullayeva, A.K.Qodirov, T.M.Qoraliyev, V.A.Ten, M.B.Nurmurodov E.A.Akromov, B.T.Berdiyarov, Y.E.Shenger, O.K.Aminov va boshqalarning izlanishlarida bayon etilgan.

¹ I.Karimov "Jahon iqtisodiy-moliyaviy ineqirozi O'zbekiston sharoitida uni baroitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" asaridan.

I-bob. Tijorat banklarida kredit tizimini boshqarishning nazariy asoslari

1.1. Bank mablag'larini iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirish chora-tadbirlari

Bugungi taraqqiy etgan iqtisodiy sharoitda banklarning bosh vazifasi bu sohada jamg'arilgan erkin pul mablag'larini akkumulyasiya qilish va ularni o'zi va umumiy iqtisodiyot uchun samara keltiradigan sohalarga yo'naltirishdir. Umuman olganda, pul muomilasini tartib topishi va rivojlanishiga nazar solsak, banda pul avvalo to'lov vositasi ya'ni barcha tovar va xizmatlar uchun umumekvivalent vazifasini o'tay borib, ma'lum bir shaxslarning qaromog'ida ular iste'molidan ortiqcha miqdorda to'planishi natijasida kredit munosabatlarini amalga oshiruvchi vosita sifatida foydalana boshlangan. Pulning aynan mana shu vazifasini amalga oshiruvchi muassasalar sifatida esa banklar yuzaga kelgan. Banklarni moliya tizimining tartib topish jarayonida asoschi rolini bajargan desak, to'g'ri bo'ladi. chunki moliya tizimi oddiy bank faoliyatini tashkil etuvchidan yirik moliyaviy kapitalga, moliya oligarxiyasiga aylanib ketgan. Banklarning rivojlanishida ayniqsa, uning davlat idorasiga aylanib ketish hodisasi yaqqol kuzatiladi. Aynan mana shu jihat banklarni moliya mexanizmining tarkibiy qismi sifatida qarashimizga asos bo'la oladi. Chunki banklar orqali davlat birinchi navbatda o'z moliya-kredit siyosatini o'tkazadi. Ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechishda bank-kredit tizimida faol ravishda foydalanadi.

Mamlakatimiz rahbari Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzalarida banklarning vazifalariga alohida to'xtalib o'tdilar va bank mablag'larini investisiya maqsadlariga, birinchi navbatda, real iqtisodiyotga yo'naltirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ko'rish lozimligini ta'kidladilar.

Ma'lumki, mamlakatning iqtisodiy salohiyati uning yalpi ichki mahsuloti bilan ichki mahsulotning o'sishi ta'minlashda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasi asosiy rol o'ynaydi. Binobarin, iqtisodiyotning real sektori qanchalik kuchli bo'lsa, shunchalik holining turmush darajasi ham yuqori va barqaror bo'ladi.

Rivojlanish va kengayish bosqichida har bir korxona uchun moliyalashtirish mablag'lari suv bilan havodek zarur. Real sektorni moliyalashtirish manbalari o'rtasida bank kreditining ahamiyati beqiyos, desak mubolag'a bo'lmaydi. Albatta, real iqtisodiyotga bank aktivlarini yo'naltirish chora-tadbirlar bank kreditlarini investision va inovasion loyihalarni qo'llab-quvvatlashga iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirilishi, eksportga mo'ljallangan va import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaratilishi lozim.

Bugungi kunda mamlakatimiz banklari o'z tasarrufidagi resurslaridan to'liqligicha real sektorni kreditlash uchun foydalanmayotganligi achinarli hol. Bundan kelib chiqib, iqtisodiyotning real sektori ehtiyojlarini moliyalashtirish maqsadida ortiqcha bank likvidligidan voz kechish, ushbu resurslardan real iqtisodiyotni kreditlash orqali samarali foydalanish lozimligini alohida ta'kidlash lozim. Shuningdek, bank aylanma mablag'larini past likvidli, samara keltirmayotgan yo'nalishlardan qaytarib olish va resurs bazasini kengaytirish,

keyinchalik esa iqtisodiyotning ustuvor ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirish bu bir maromda ham banklarga ham real iqtisodiyot sohasiga ma'qul keladi.

Iqtisodiyotning dinamik va barqaror rivojlanishi uchun jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini akkumulyasiya va jamg'armalarni investisiyalarga transformasiya qilinishini taminlash uchun xizmat ko'rsatuvchi moliyaviy vositachilik tizimi samarasini oshirish ya'ni depozitlarni oshirish yevazigaiqtisodiyotning real sektoriga kreditlar hajmini ko'paytirish, samarali jalb etish tizimi orqali banklar tomonidan o'rta va uzoq muddatli mablag'larni akkumulyasiya qilinishini va ularni investision resurslari sifatida iqtisodiyotning real sohasiga qayta taqsimlanishini ta'minlash zarur. Shu vaqtni o'zida, banklar kapitalizasiya darajalarini oshirishlari va qarz resurslarini jalb etish instrumentlari tarkibi va tuzilmasini kengaytirishlari darkor.

So'ngi yillarda Xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik kuchayib bormoqda. Ayniqsa YTTB, OTB va boshqa hamkor banklar bilan bir necha kredit yo'llari ochilgan bo'lib, ularni o'zlashtirish bo'yicha ma'lum faoliyat amalga oshirilmoqda. Lekin afsuski, ma'lum shart-sharoitlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, ushbu kredit yo'nalishlarini o'zlashtirish juda ham sust kechmoqda. Shuningdek, mamlakatimizning hamma banklari xalqaro kreditlarni qayta moliyalashtirish faoliyati bilan shug'ullanishiga imkoniyatlar yaratilmoqda. Banklarga chet ellik hamkorlar bilan ishlashda erkinlik berish, kredit yo'nalishlarini o'zlashtirish jarayonini tezlashtirish va mablag'larni ularga ehtiyoj sezayotgan ishlab chiqarish sektorlariga jalb etish bo'yicha dolzarb muammolarni hal etish lozim.

Iqtisodiyotning real sektoriga bank kreditlarini transformatsiyalashni bir tomonlama tarzda amalga oshirishga yo'l qo'ymaslik kerak. Birinchi navbatda, kreditlarni haq-huquqlarini saqlab qolishga ularga qo'shimcha imkoniyatlar yaratish va imtiyozlar bazasini takomillashtirishga soliq bazasini, soliq imtiyozlari berishga e'tiborni qaratish kerak.

Banklarning himoyalanganlik darajasini oshirishga, iqtisodiyotning real sektorida faoliyat ko'rsatayotgan nomoliyaviy tashkilot va korxonalarining moliyaviy holati va mulkchilik tuzilmasi to'g'risidagi ma'lumotlarini maksimal darajada transparentligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni qabul qilish maqsadiga muvofiqdir. Bunday chora-tadbirlar quyilmalarning samaradorligini hamda ushbu quyilmalarni tashkilot va korxonalarni o'zlik mablag'lari bilan o'rin bosishini oqilona darajasini belgilashga yordam beradi. Yana bir holatni chetlab o'tmaslik kerak, bu ham bo'lsa banklarning resurs bazasiga tegishli. Ma'lumki, banklar har bir berilgan kredit uchun yo'qotishlarga qarshi zahiralar tuzishlari kerak, ushbu zahiralarini tashkil etish korxonalarga moliyaviy yordam ko'rsatishni, banklar uchun o'z resurs bazasiga nisbatan manfaatsi va noqulay sharoitlarni keltirib chiqarishi mumkinligini hisobga olish darkor.

Iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish maqsadida berilgan kreditlarga nisbatan rahiralarni tashkil qilish tartibiga ba'zi imtiyozlarni qo'llash bilvosita bo'lsada o'z ijobiy ta'sirini o'tkazishi e'timoldan holi emas. Istiqbolli kredit turlarini rivojlantirish va takomillashtirish bu iqtisodiyot real sektorini moliyalashtirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlardir.

Lizing tadbirlarini kompleks holda keng ko‘lamda moliyalashtirish iqtisodiyotning real sektorini qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanmog‘i kerak. Lizing korxonaning faqatgina moliyalashtirish muammosiga emas, balki asbob-uskunalarini sotib olish muammosiga yechim beruvchi vositadir, ya‘ni lizing o‘z tabiatiga ko‘ra, kredit o‘rnini bosuvchidir. Biroq bugungi kunda mamlakatimizda lizing munosatlari yetarlicha shakllanmagan. Shuni nazarda tutish kerakki, lizing operasiyalari faqatgina bank faoliyatini kengaytirish instrumenti bo‘lib qolmasdan, moliyaviy va moddiy resurslarni tadbirkorlik tuzilmalari tomonidan ratsional ishlatilishiga ham olib keladi. Mazkur sohasidagi tayyor jahon tajribalarini qanchalik tezkorlik bilan tadbqiq etsak va samarali foydalansak, shunchalik tez bir taraqqiy etgan bozor iqtisodiyotiga erishishimiz mumkin. Demak, lizing munosabatlariga banklarni undovchi omil va asoslarni yaratish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri, desak o‘rinlidir.

Lizing kompaniyalarni moliyalashtirishda kredit resurslaridan foydalanishni soddallashtirish lozim. Lizing kompaniyalari va banklar o‘rtasida hamkorlik munosabatlarini o‘rnatishi ishlab chiqarishga zarur bo‘lgan vositalarni yetkazib berishni tezlashtiradi, ishlab chiqarishlarni yaratishida asosiy talab bo‘la oladi. Shu bois, lizing munosabatlarining komplekslashganligi ta‘minlash bugungi kunning talabi bo‘lib qolmoqda. Ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatuvchi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchidan toki undan foydalanuvchisiga yetkazishda bank kreditlarini o‘rnini kuchaytirish, ya‘ni bank kreditlarini lizing munosabatlarining alohida bosqichlarini emas, balki butun bir kompleksini qo‘llab-quvvatlashga erishish lozim.

Mamlakat banklari tomonidan zamonaviy faktoring operasiyalarini, ya‘ni ishlab chiqaruvchining aylanma mablag‘larini sotib oluvchiga talab qilish huquqini uchinchi shaxsga o‘tkazish orqali moliyalashtirishni qo‘llashga imkoniyatlar ochib berish va takomillashtirish kerak. Ushbu xizmat ko‘rsatish turi o‘z istiqboliga ega bo‘lishi aniq, chunki ishlab chiqaruvchi kompaniyalar mahsulotni pul mablag‘lariga tezkorlik bilan aylanishiga doimo ehtiyoj sezadi. Odatdagi kreditlashga nisbatan faktoringi ustunligi shundaki, bunda bank bir korxonaning debitorlik qarzdorligini, boshqa tomondan esa ikkinchi korxonaning kreditorlik qarzlarini boshqarishga chaqiriladi. Faktoring ishlab chiqaruvchi korxonalarning aylanma mablag‘larining aylanish davrlarini qisqarishiga, o‘z navbatida ishlab chiqarishni to‘xtovsiz amalga oshirishga imkon beruvchi, ishlab chiqarish darajalarini oshiruvchi omil bo‘la oladi. Mamlakatimiz banklari tomonidan faktoring operasiyalari amalga oshirilayotgan bo‘lsada, ularning hajmi oddiy kreditlar hajmiga nisbatan anchagina past darajada. Bundan tashqari, qo‘llanilayotgan faktoring shartnomalari uzoq muddatga mo‘ljallangan, tuzilayotgan shartnomalar bir martalik kuchga ega. Faktoring operasiyalarning ahamiyatidan kelib chiqib, ularning hajmini oshirish darkor, bu o‘z navbatida, debitorlik va kreditorlik qarzdorliklarni kamaytirishga imkon beradi. Ishlab chiqarishni o‘qishiga turtki bo‘la oladi. Albatta faktoring operasiyalarining qonuniy-meyoriy asoslarini bugungi kun talabiga mos ravishda takomillashtirish ham bugungi kunning dolzarb muammolaridandir.

Bankning moliya mexanizmi tarkibiy qismi sifatidagi mohiyati u bajaradigan amallarda o'z aksini topadi. Birinchi guruh amallarini kredit hususiyatiga ega bo'lmagan amallar bilan cheklash lozim, ya'ni bular pul muomalasini tashkil qilish iqtisodiyotga o'zaro hisob-kitoblarni bajarish, kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish, davlat byudjetini kassa ijrosi va boshqalar. Ko'rinib turibdiki, va vazifalarni bajarish davomida bank faqat pul ko'rinishidagi amallarinigina bajaradi.

Ikkinchi guruh amallarini esa bevosita iqtisodiyotni kreditlash va kredit mablag'larini toptirish amallari tashkil etadi. Bu bankning o'zi foiz to'laydigan passiv amllari, hamda unga daromad keltiradigan aktiv aomillari yig'indisidir. Ikkinchi guruh amallari uchinchi guruh amallarini yuzaga keltiradi, ya'ni foiz amllari aslida ishlab chiqarish munosabatlarining mustaqil bir qismidir. Shuning uchun foiz omillari bilan bog'liq bo'lgan uni kreditga ustama sifatida belgilash undirish va to'lash alohida bank omillari sifatida shakllanadi va ushbu omillar banklarni mustaqil xo'jalik subektlariga aylantiradi.

Banklarning iqtisodiyotini real sektoriga kreditlar hajmi foiziga oshadi va qariyb 750 mlrd, so'mni tashkil etadi. Biroq kkorxonalarning joriy depozitlari (talab qilib olinadigan depozitlar) asosan qisqa muddatli kreditlar ko'rinishida ishlatilmoqda. "O'ztadbirkorbank" va "O'zprivatbank" larning 2006 yil 1 oktabr holatida hisobotlarini tahlil qilganimizda, ular asosiy mablag'larni kreditlar ko'rinishida berib, kreditlash lizing va faktoring amallari kabi turlarini deyarli qo'llamayotganlarini guvohi bo'lamiz. Masalan, 2007-2008 yillar davomida "Mikrokreditbank" tomonidan berilgan kreditlarga faktoring mallarining salmog'i bor yog'i mos ravishda 33 mln so'm va 7 mln so'mni yoki barcha berilgan kreditlarga nisbatan 7 va 1 foizni tashkil etgan. Qizig'i shundaki, davlat qimmatbaho qog'ozlar bilan qilinadigan bank amallari asosan bankning o'zlik mablag'lari hisobiga emas, balki jalb etilgan qisqa muddatli mablag'lar hisobiga amalga oshirilmoqda. Tibbiyki, bu holat banklarga uzoq muddatli qo'yilmalar qo'yish imkoniyatini bermaydi. "Qisqa muddatli" pullar esa yuqori darajadagi majburiy zahiralarga ajratmalar ajratilishi bilan samarasizdir.

Banklarning davlat qisqa muddatli obligatsiyalari bilan olib borayotgan omillari mantiqan ajablanarlidir. Chunki odatda qancha katta risk qilinsagina nisbatan ko'proq daromadga erishish mumkin. Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari bilan bo'ladigan omillar esa o'zining risk darajasi pastligi, hamda likvidlik darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, likvidliligi yuqori bo'lgan, riski ham davlat qimmatli qog'ozlari bilan mshlayotgan banklar kredit amllariga nisbatan ko'proq daromad olishmoqda.

Lekin, fikrimizcha, banklarga davlat qimmatli qog'ozlar hisobidan o'zlariga "foyda yashashlariga" yo'l ochib bermaslik kerak. Chunki ushbu qimmatli qog'ozlarning asl mohiyati kredit muassasalariga daromadni ta'minlab berish emas, balki byudjet kamomadini ma'lim darajada qoplashdir. Davlat obligatsiyalarini kredit muassasalariga xizmat qildirishning oqibatini Rossiya davlatida 1998 yil avgustida ro'y bergan moliyaviy inqiroz natijalari ko'rsatib qo'ygan. Bundan tashqari, tijorat banklarining davlat qimmatli qog'ozlariga ruji

qo'yishi ular mustaqilligiga salbiy ta'sir etadi. Mustahkamlik zaxirasini kamaytirib, davlat mablag'lariga qaram qilib qo'yadi.

Mavjud tahliliy ma'lumotlarni o'rganganimizda chet el kapitali ishtirokidagi banklar o'z mablag'larini yoki ustav jamg'armasiga emas, balki aynan davlat qimmatli qog'ozlariga qo'yishni afzal ko'rayotganliklarining guvog'i bo'lamiz. Ma'lumki, bugungi kunda respublikamiz banklari real sektorga uzoq va o'rta muddatliga nisbatan, qisqa muddatli kreditlar berishni afzal ko'rishmoqda. Fikrimizch, buning quyidagicha sabablari bor:

- avvalo aholi omonatlarining va korxonalarning uzoq muddatli depozitlari banklarda kamligi sababli, asosiy kredit mablag'lari manbaini qisqa muddatli jamg'armalar tashkil etmoqda;

- qisqa muddatli kreditlarning qaytishi ham ulardan undiriladigan foizlarning ham tezroq bankka kelib tushishi. Bu holat qisqa muddatli kredit berish orqali banklarning rahbariyati bankning uzoq kelajagini emas, balki tezroq foyda olishni, ya'ni joriy faoliyatdan kelib chiqayotganliklarini ko'rsatadi;

- qisqa muddatli kreditlardan olinadigan foiz darajasi uzoq va o'rta muddatliga nisbatan anchagina yuqori;

- qisqa muddatli kredit berishda biznes rejani va umuman mijozning moliyaviy holatini tahlil qilish ason va qulay. Bu holat esa banklarda loyihaviy moliyalashtirish masalalariga yetarlicha e'tibor bermayotganidan, ularda tahliliy tekshirish guruhlarining faoliyatini yomon ahvolda ekanligidan yoki bunday guruhlarining umuman yo'qligidan darak beradi.

Bugungi kunda respublikaning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha berilgan kreditlarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha taqsimotini tahlil etish quyidagilarni ko'rsatadi. O'tkazilgan tahlil iqtisodiyotning barcha asosiy sohalarida tijorat banklari mavve asosiy o'rinda saqlanib qolayotganligi bilan bir qatorda nobyudjet fondlarning ham salmog'i oshib borayotganligini ko'rsatadi. Nobyudjet fondlar ulushi sanoat 7,48%, qishloq xo'jaligida 17,05% qurilish va maishiy xizmat sohalarida 17,45% boshqa tarmoqlarda 5,64%;ni tashkil etmoqda. Biroq iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan qishloq xo'jaligi sohasi bo'yicha barcha kredit qo'yilmalari, jumladan nobyudjet fondlar tomonidan amalga oshirilayotgan qo'yilmalar salmog'i past darajada qolmoqda.

Yuzaga kelgan vaziyatning asosiy sabablaridan biri qishloq xo'jaligi sohasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, shu soha uchun maqbul bo'lgan foizlarda berilayotgan o'rta va uzoq muddatli kreditlar salmog'ini past darajada saqlanib qolayotgani ekanligidir. Shuningdek bugungi kunda qishloq xo'jalik fermerlariga imtiyozli asosla bo'lgusi hosil hisobidan bank kreditlari berish ham mavjud muammoni yechishga ijobiy ta'sir etmaydi. Aksincha bu borada jahon amaliyotida mavjud bo'lgan **fijuchers** kantraktlariga o'tish maqsadida muvofiqdir.

Real sektor bagklar tomonidann kreditlashga ayniqsa kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlarini mikrokreditlash banklarning rolini kuchaytiradi. Jumladan:

- uzoq muddatli kredit mablagʻlari tanqisligi sharoitida banklarning mikrokreditlash tizimi orqali mavjud mablagʻ bilan koʻproq mijozlarni kreditlashga imkoniyati tugʻiladi;

- mikrokreditlar olish uchun taqdim etiladigan loyihalar nisbatan sodda boʻlganligi uchun, ularni chuqur tekshirishni va buninguchun mahsus mutaxassislar yoʻllashni talab etmaydi. Bu holat mikrokreditlash bilan mahsus tahliliy tukshiruv guruhlariga ega bshlmagan kichik banklar, jumladan endi tarkib topib rivojlanib kelayotgan hususiy banklar ham shugʻullanishiga imkoniyat yaratadi;

- kichik biznes subyektlari hali taraqqiy etmagan, ayniqsa ularni kreditni qaytarish kafolatlari yetarli boʻlmaganligi sababli ularni mikrokreditlash banklarga yuqori riskli kreditlar berishda nisbatan kam zarar koʻrish ehtimolini olib keladi.

Yuqoridagilardan hulosa qilib aytganda, Prezidentimizning maʼruzalarida koʻtarilgan muammo banklar tomonidan iqtisodiyotning real sektorini kreditlash va investitsiyalash jarayonini nafaqat real sektoriga pul mablagʻlarini salmogʻli ravishda yoʻllashni, balki mavjud kreditlash mexanizmini va meyoriy-huquqiy bazani ham zamonaviy talablar asosida takomillashtirishni talab etadi.


1.2. Bank kredit tizimini iqtisodiy mohiyati va inqiroz sharoitida uni boshqarishning nazariy aoslari

Kredit siyosatida kredit portfelini shakllantirish va uni boshqarish muhim rol o'ynaydi. Kredit portfeli deganda bank tasarufida bo'lgan kredit resurslari tushiniladi. Kredit resurilaridan samarali foydalanish bankning asosiy faoliyati turi hisoblanib, uning natijasida bank daromadlarning asosiy qismiga ega bshladi

Kredi portfelini boshqarish bu mavjud kredit resurslaridan samarali foydalanish san'ati demakdir, ya'ni samarali boshqaruv natijasida kredit resurslari nafaqat o'zining qiymatini saqlab qoladi balki sezilarli darajada daromad keltiradi.

1.2.1-chizma

Kredit portfelini boshqarish tizimi



1.2.1-chizma asosida kredit portfelini boshqarishning beshta bosqichini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Kredit maqsadini, ya'ni boshqarish strategiyasi determinantlari aniq belgilab olish;
2. Turli kreditlarning daromadlidik darajasi to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.
3. Tanlab olingan vositalarning oqilona nisbatini ta'minlash uchun tasavvurlar va maqsadlar integrasiyasiga erishish;
4. Portfel tarkibida o'zgarishlar keltirib chiqarilishi mumkin bo'lgan omillarni doimiy tarzda tahlil qilish va o'rganish;
5. Portfel faoliyatini o'lchash, ya'ni kredit xavf-xatarlariga nisbatan portfeldan olinadigan daromadlarga baho berish.

Kredit tizimini boshqarishning tarkibiy qismlarini batafsilroq ko'rib chiqami.

Kredit portfelini shakllantirishning muhim shartlaridan biri kreditning maqsadini aniq belgilab olishdan iborat. Kreditlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- a) kapital o'sishi kelajakda barqaror daromadlar olishga mo'ljallangan uzoq muddatli kreditlar;
- b) tez muddatlarda daromad olish, ya'ni spekulyativ daromadlarni olishga mo'ljallangan qisqa muddatli kreditlar.

Agar kreditdan maqsad qisqa muddatda daromad olish bo'lsa, u holda kredit xatarining yuqoriligini hisobga olgan holda foiz stavkasini yaqori belgilash maqsadida muvofiq.

Kreditlarni bandlashda nisbiy (obligasiyalarning daromadliligiga nisbatan kreditlarga baho berish) omilli (daromadlar, dividendlar, pul oqimini tahlil qilish) dinamik (oldingi faoliyatni, joriy operatsiyalarni tahlil qilish va istiqbol ko'rsatkichlarini aniqlash) ko'rsatkichlardan foydalanish lozim.

Nisbiy baholash. Kreditdan olinadigan foiz va obligasiyalar daromadlarini baholash xavf-xatarlarni baholash bilan chambarchas bog'liq. Har bir kredit turining hatarlilik darajasi kredit oluvchining likvidlik darajasi, kreditning daromadliligi va barqarorligi bilan tezkor mutanosib bog'lanishga ega.

Omilli tahlil. Kredit samaradorligini omilli tahlil qilishda quyidagi ko'rsatkichlarni hisobga olish lozim.

Kreditlayotgan investisiyalarning qoplash muddati-bu ko'rsatkich kredit qiymatini sof foydaga nisbatan aniqlanadi. Masalan, kredit qiymati 40 birlikni sof foyda esa 5 birlikni tashkil etsa, u holda qoplanish muddati 40:5 8 yilni tashkil etadi. Ammo jahon bozorida kompaniyaning qoplanish muddati 10 yilni tashkil etganligi tufayli bu kompaniya arzon hisoblanadi.

Bundan tashqari, kreditning samaradorligini aniqlashda qoplash kofisientini hisoblash zarur. Bu ko'rsatkich kredit foizining kreditdan olinadigan daromadga nisbati sifatida aniqlanadi. Agar bu kofisient 1 yoki 1 ga yaqin bo'lsa, u holda keyincha yilda daromadlar pasayadi va kredit foizi qoplanmay qoladi. Qoplash kofisienti 2 dan kam bo'lmasligi lozim.

1.2.1-jadval

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha kreditlar taqsimoti, %

Tarmoqlar	Jami beril-gan kreditlar	Shu jumladan			
		Tijorat banklar	Nobyudjet fondlar		
			Jami	Shu jumladan	
				DFX QQ fondi	Bandlik jag'armasi
Sanoat	100	92,52	7,48	0,90	2,25
Savdo	100	100	0	0	0
Qishloq xo'jalik	100	82,95	17,05	4,30	11,83
Qurilish va maishiy xizmat	100	82,55	17,45	0,09	7,11
Boshqa tarmoqlar	100	94,36	5,64	0,27	3,35

Uzoq muddatli kreditlarda bank o'zining kelajakdagi daromadlari va kredit xatarlarini boshoratlash uchun iqtisodiyotning uch darajasida fundamental tahlilni

amalga oshirishi lozim. Tahlilning birinchi darajasida iqtisodiyotning umumiy holati, moliya bozori va rivojlanishning muqobil variantlari tahlil qilinadi.

Tahlilning ikkinchi darajasida kredit uchun eng istiqbolli sohalarni aniqlash uchun iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va quyi tarmoqlari atroflicha tahlil qilinadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, istiqbolda noaniqlik omilini pasaytirish uchun jahon bozori ehtiyojlarini tahlil qilish makroiqtisodiy axborotlar tahlili bilan to'ldirilishi lozim.

Bu axborotlar mintaqaviy va tarmoq xavf-xatarlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimidan iborat bo'lib, bank tomonidan vaqti-vaqti bilan yangilanib turadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mazkur ko'rsatkichlar bir biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni kompleks tahlil qilish zarur. Kredit resurslaridan samarali foydalanish uchun korxonaning turli faoliyat yo'nalishlarini vaqt davomida, korxonafaoliyati ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish, korxona faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarni aniqlash, iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zgarishini hisobga olgan holda iqtisodiy korxona faoliyatining turli variantlarini operativ tarzda ishlab chiqish korxonaning turli faoliyat variantlarini tanlab olish zarur.

Makro va mikro darajadagi tahlilning yakuniy bosqichi obyektlarni kreditni qaytara olishi nuqtai nazaridan bir tizimda keltirishdan iborat.

Kredit portfelini boshqarish taktikasini tanlash matritsasi

1.2.1-jadval

Kredit turini tanlay olish qobiliyati	Bozor holatini oldindan qayta olish qobiliyati	
	Yaxshi	Yomon
Yaxshi	1.Kredit resurslarini diversifikatsiyalamasdan tanlangan sohalarga jamlash	1.Kredit resurslarini diversifikatsiyalamasdan tanlangan sohaalarga jamlash
O'rta	2.Bozor holatini oldindan aytish ma'lumotlariga aoslanib B ni uzoq muddatli meyoriy darajadan past yoki yuqori qilib belgilash	2.Bni uzoq muddatli meyoriy darajada saqlab turish
Yomon	1.Diversifikasiyalashdan portfelga egalik qilish. 2.Bozor holatini bashoratlash ma'lumotlariga aoslanib Vni meyoriy darajadan past qilib belgilash.	1. Maksimal diversifikasiyalashdan portfelga egalik qilish. 2.Bni uzoq muddatli meyoriy saqlab turish.

Quyidagi matritsa yordamida mavjud kredit resurslarini hisobga olgan holda kredit portfelini boshqarishning eng yaxshi taktikasini tanlash mumkin.

Ushbu matritsadan foydalangan holda kredit portfelini boshqarishning samarali taktikasini tanlab olish mumkin. Agar kredit tanlab mijozlarni tanlash qobiliyati yaxshi bo'lmasa, u holda u o'z kredit portfeli uchun umumiy xatar darajasini aniqlashga asosiy e'tiborni qaratgan holda mijozlarni tanlashi va shundan so'ng xatar darajasi o'zgarmas bo'lgan diversifikasiyalashgan portfel shakllantirilishi lozim.

Agar kredit beruvchi bozor holatini yaxshi bashoratlay olishga ishonsa, u holda u o'zining kredit tarkibini bozor o'zgarishlariga qarab o'zgartirishi mumkin va nihoyat, kredit beruvchi istiqbolli sohalarni aniq bilsa, u holda diversifikasiyalashdan vaz kechishi va kredit resurslarini eng yuqori daromad beruvchi sohalarga joylashtirishi mumkin.

Tijorat bankining strategiyasidan kelib chiqqan holda kredit portfelini aktiv va passiv boshqarish mumkin.

Kredit maqsadli ishlatilishiga ko'ra uch yirik guruhga bo'lish mumkin:

1. Overdraftlar;
2. Asosiy va aylanma kapitalni to'ldirish maqsadida berilgan kreditlar;
3. Investision loyihalarni moliyalashtirish maqsadida beriladigan kreditlar.

Overbroft tushunchasi ingliz tizimidan olingan bo'lib, qisqa muddatli kreditlash ma'nosiga anglatadi. Bundan kredit tijozning joriy hisob raqamining debitli qoldig'iga beriladi. Overdroft kunlik xarajatlarini doimiy ravishda moliyalashtirib turadigan, joriy hisob raqamiga sotilgan tovarlar va ko'rsatilgan iovarlar yuzasidan olinadigan tushumlarning kelib tushish vaqti bilan to'lovlarni amalga oshirish va o'rtasida bo'ladigan qisqa muddatli uzilishlar tez-tez ro'y berib turadigan mijozlar tomonidan keng qo'llaniladi.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichda overdraft bo'yicha kreditlash yuksak darajada taraqqiy etgan davlat Angliya hisoblanadi. taniqli iqtisodchi olimlar Kris Barltrop va Diana Maknotonlarning ilmiy izlanishlari natijalari shuni ko'rsatadiki, Angliya va Fransiyada shuningdek bu davlatlar bank tizimlarining faoliyatini o'zlashtirgan va ularning boy tajribasidan keng ko'lamda foydalanayotgan davlatlarda overdraft kreditlashning asosiy shakli darajasiga ko'tarilgan. Mazkur iqtisodchi olimlarning fikriga ko'ra, Angliyada overdraft usulida kreditlashning rivojlanganligining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- a) kreditlashning mazkur shaklini amalga oshirish bo'yicha yuqori malakaga ega bo'lgan mutaxassislarining mavjudligi;
- b) kreditni rasmiylashtirish jarayonini osonlashtirilganligi;
- v) overdraft kreditini bank tomonidan nazorat qilish tizimini yaxshi yo'lga qo'yilganligi.

Ko'pchilik rivojlanayotgan davlatlarda, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining bank amaliyotida overdraft usulida kreditlash rivoj topmagan. Bu tabbiyoki, kreditlashning ushbu shakli bo'yicha amaliy tajribani yetarli emasligidan dalolat beradi. Overdraft usulida kreditlash unga bo'lgan obyektiv talabning yuzaga kelishi natijasida paydo bo'ladi. Binokarin, overdraft kredit mijozga ham xarajat qilib faoliyatining davomiyligini ma'lum miqdordagi kredit hisobidan ta'minlash imoniyatini beradi. Xolbuki, overdraft usulida kreditlash kreditlash mavjud bo'lmaganda mijoz muddatli kredit olgan bo'lar edi va uning

resurslariga bo'lgan ehtiyoji olgan kredit summasi bilan o'zaro muvofiq kelmas edi. Boshqa tomonidan, banklar overdraft krediti berishi orqali yuqori daromad manbaiga ega bo'ladilar. Buning boisi shundaki, birinchilardan, overdraft kreditlarining foiz stavkasi oddiy kreditlarining bozor stavkasiga nisbatan yuqoridir. Chunki., overdraft kreditida risk darajasi yuqori bo'lganligi uchun foiz stavkasi ham yuqori belgilanadi. Ikkinchidan, tijorat banklari overdraft kreditlarni moliyaviy jihatdan barqaror bo'lgan mijozlarga beradilar.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda xo'jalik yuqori subyektlarning aylanma mablag'larning yetishmasligi muammosi ular faoliyatida asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Ularga Davlat byudjetidan assignovaniyalar berish amaliyotida chek qo'yilgan sharoitda tijorat banklarining kreditlari aylanma mablag'larni to'ldirishning asosiy manbaiga aylanadi.

Tijorat banklarining o'rta va uzoq muddatli kreditlari hisobidan real investisiyaon loyihalar moliyalashtiriladi. Oddatda.investitson loihalarni moliyalashtirish maqsadiga berilgan kreditlarning foiz stavkalari qisqa muddatli kreditlarning foiz stavkalariga nisbatan yuqori bo'ladi. Ayni vaqtda shuni, alohida ta'kidlash joiski, tijorat banklarining investisiyaon kreditlar berish imkoniyati doimo cheklangan bo'ladi. Shuning sababi shuki, tijorat banklari resurslarining asosiy qismini qisqa muddatli resurslar tashkil etadi.

Shuni takidlash joizki xozirgi vaqtda banklar amaliyotida jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar xajmi o'sib bormoqda. Masalan, Fransiya va Germaniyada bunday kreditlarning miqdori bilan tenglashadi AQShda yesa, bunday kreditlar miqdoriga ko'ra banklarning kredit portfelida birinchi o'rinda turadi.

Tijorat banklarining jismoniy shaxslar bilan amalga oshiradigan kredit amaliyotini shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Iste'mol kredit;
2. Uy-joy kredit.

Iste'mol krediti deganda odatda tovarlar sotib olish masalasida beriladigan kreditlar tushuniladi. Bunday kreditlar horijiy davlatlarning bank amaliyotida rivojlangan ular aholining tovarlarini sotib olish talabini rag'batlashtiradi. Ayniqsa, o'rtacha daromad ko'radigan shaxslar iste'mol kreditidan keng foydalanadilar. Rivojlangan horijiy davlatlarda individual mijozlarga berilgan ssudalar ichiga ipoteka ssudalari egallaydi. Ular asosan uy-joy qurilish, ularni ta'minlash yoki sotib olish maqsadlarida ishlatiladi. Bunday kreditlarning garov ta'minotiga uy, yer uchastkasi olinishi mumkin.

Rivojlangan horijiy davlatlarning bank amaliyotida uy-joy kreditining muddati 7 yildan 20 yilgacha, ayrim hollarda 30 yilgacha qilib belgilanadi. Bunday kredit yuqori riska ega, chunki bu muddat mobaynida jalb qilingan resurslarning bahosi oshishi mumkin. Shuning uchun tijorat banklari uy-joy kreditni berishga so'zib yuruvchi foiz stavkalaridan foydalanishadi.

Shunisini xarakterligi, keyingi yillarda rivojlangan xorijiy davlatlarning tijorat banklarini kredit portfelida kreditlarning nisbatan yangi shakllari bo'lgan faktoring va forfeiting kreditlarning salmog'i oshib bormoqda. Faktoring asosiy tamoyili shundaki, faktoring operatsiyaning amalga oshirayotgan bank aniq

mijozlaridan ularning boshqa korxonalariga bo'lgan talablarini sotib oladi va 2-3 kun ichida ularga pullik talablarning 70 foizidan 90 foizigacha bo'lgan qismini avans tariqasida to'laydi, qolgan 10-30 foizi mijozga kontragentdan pul mablag'lari kelib tushadigan keyin to'lanadi. Korxona uchun faktoringni avzalligi shundaki bu operatsiya orqali korxonaning likvidligi oshadi.

Rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotida faktoring operatsiyalari eksport sohasida qo'llanilayotgan faktoringning ikki asosiy shakli mavjud:

1. Sokin faktoring;
2. Ochiq faktoring.

Sokin faktoringda korxona o'zining banki bilan faktoring shartnomasi tuzadi va bankning barcha tuzillgan bitimlar bo'yicha doimiy ravishda xabardor qilib boradi. Lekin, o'zining hamkorini tuzilgan faktoring shartnomasidan habardor qilmaydi. Bank o'zining mijozga tovar so'mmasini 80 foizini to'lab beradi. **Eksportyor** o'zining hamkoridan to'lov so'mmasini olishi bank bilan hisoblanadi.

Agar haridor eksportyorga to'lovni to'lay olmay qolsa u holda eksportyor xaridorning talabining bank foydasida voz kechilgandan habardor qiladi. Endi to'lov so'mmasini olish bankning zimmasiga o'tadi.

Sokin faktoring qiymati to'lov so'mmasining 0,51 foizini tashkil qiladi. Bundan eksportni moliyalashtirish uchun beriladigan kreditlarning bozor foiz stavkalari ham qo'shiladi.

Ochiq faktoringda eksportyor talabni bankka sotilganligi to'g'risida xaridorini xabardor qilishga majbur. Bu tizimda bank mijozning tovar summasini to'liq olishga kafolat beradi. Bunda ham dastlab to'lov summasining 80 foizi to'lab beriladi.

II-bob. Tijorat banklarining kredit portfeli tahlili

2.1. Tijorat banklari kredit portfeli deversifikatsiyalanganligini bank daromadlilikini ta'siri

Jahon ta'mirlash va taraqqiyot banki ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan va riojlangan xorijiy mamlakatlarning bank amaliyotida keng qo'llanilayotgan aktivlarning daromadlilikini baholash metodikasiga ko'ra tijorat banki brutto aktivlari miqdorining dinamikasi bank yalpi daromadining dinamikasi bilan taqqoslanadi. Agarda tahlil qilingan davr mobaynida bank aktivlarining o'sish sur'ati va yalpi daromadning dinamikasi bilan taqqoslanadi. Agarda tahlil qilingan davr mobaynida bank aktivlarining o'sish sur'ati va yalpi daromadning o'sish sur'ati o'rtasida muvofiqlik kuzatilsa, u holda mazkur tijorat banki aktivlarining daromadlilik darajasi barqaror deya baholanadi. Agarda bank yalpi daromadlarining o'sish sur'ati brutto aktivlarining o'sish sur'atidan past bo'lsa, lekin yalpi daromad miqdorining o'sish tendensiyasi mavjud bo'lsa, u holda mazkur holat ham tijorat banki aktivlarining daromadlilik darajasining barqarorligidan dalolat beradi. Aktivlarni baholashning ushbu metodikasiga ko'ra, agarda tahlil qilingan davr mobaynida tijorat banki yalpi daromadining o'sish sur'ati pastayish tendensiyasiga ega bo'lsa yoki aktivlarning o'sish sur'ati kuzatilgan holda yalpi daromadning miqdori zmasa, mazkur holatlar salbiy holat hisoblanadi va bank aktivlarining darajasini nobarqaror ekanligidan dalolat beradi. Ushbu metodikani foydalanish, ayniqsa o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari tijorat banklarining faoliyatida muhim o'rin tutadi. Chunki moliya bozorlarining rivojlanganligi, tijorat banklari mijozlarining sezilarli qismida pul oqimining zaifligi kabi omillar mazkur mamlakatlar tijorat banklari aktivlarining barqarorlik darajasiga nisbatan kuchli salbiy ta'sir yuzaga keltiradi.

Keltirilgan ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2005-2010 yillar mobaynida ATIB "Ipoteka bank" brutto aktivlarining o'sish sur'atlari bilan uning yalpi daromadining o'sish sur'atlari o'rtasida muvofiqlik kuzatilgan. Bu esa, ATIB "Ipoteka bank" aktivlarining daromadlilik darajasini barqaror deb baholashga asos bo'ladi. xususan, 2008-2010 yillar mobaynida bank aktivlari ham, yalpi daromadi ham o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, aktivlar va yalpi daromad dinamikalaridagi muvofiqlikning mavjudligidan dalolat beradi.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2007-2008 yillar mobaynida ATIB "Ipoteka bank" aktivlari miqdorining kamayganligi mazkur davr mobaynida yalpi daromad miqdorining kamayishiga sabab bo'lgan.

ATIB “Ipoteka bank” aktivlarining daromadlilik (foizda)

№	Ko‘rsatkichlar	2005	2006	2007	2008	2009	2010
1	Aktivlarning umumiy daromadlilik ko‘yefitsenti	30,03	21,97	24,59	24,35	21,85	20,47
2	Bank kreditlarining daromadlilik darajasi	13,09	14,29	17,22	13,72	13,51	13,78
3	Bankning qimmatli qo‘g‘ozlarga qilingan inventarlarining daromadliliigi	34,31	24,13	24,68	23,13	27,22	25,95
4	Sof foizli marja kayefetsenti	6,30	5,46	4,40	3,73	4,45	4,58
5	Sof foizli spred kaffetsenti	-11,81	-3,50	-2,77	-9,53	-2,65	-1,08

Keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turinadiki, 2010 yilda aktivlarning umumiy daromadlilik kaffitsenti 2005 yilga nisbatan sezilarli darajada (10,56 f.p.) pasaygan. Bu esak ATIB “Ipoteka bank” ning moliyaviy holatiga salbiy ta’sir qiluvchi omil hisoblanadi.

Ushbu pasayishning asosiy sababi shundaki, 2010 yilda 2005 yilga nisbatan aktivlarning o’sish sur’atidan ancha yuqori bo’lgan. YA’ni 2009 yilda bank aktivlarining umumiy so‘mmasi 2005 yilga nisbatan 3,4 marta o’sgan bo’lsa, bu davrda bankning yalpi daromadi 2,4 marta o’sgan holos. Huddi shunday holat 2006 yilda ham kuzatadi. 2007 yilda 2005 yilga nisbatan daromadlilik kaffitsenti 2,6 foizga o’sgan. Bu o’sish yalpi daromadning yuqori o’sish sur’atining yuqoriligi (13,4 foiz) bilan izohlandi.

Ma’lumotlar 2005-2005 yillarda ATIB “Ipoteka bank” kreditlarining daromadlilik darajasi barqarorligicha qolganligini ko‘rsatadi. 2010 yilda bu ko‘rsatkich 2005 yilda nisbatan atagi 0,6 punktga oshgan. Buning sababi, tahlil qilinayotgan davr mobaynida bank brutto kreditlari hajmining o’sishi sur’ati bilan kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning o’sish o’rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashga muvofiq bo’lingan.

Tidjorat banklari kreditlarining daromadlilik darajasiga bevosita ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri muddati o’tgan kreditning o’zgarishidir.

Muddati o’tgan kreditlarning daromadligiga ta’siri bir qator yo‘nalishlardan nomoyin bo’ladi. bizning fikrimizcha ushbu yo‘nalishdan asosiylari quyidagilardan iborat:

a) Muddati o’tgan kreditlar hajmining o’sishi netto-kreditlar hajmining qisqarishiga olib keladi. Bu esa real daromad keltiruvchi kreditlar miqdorining kamayganligini bildiradi;

b) Foizlarni o’stirmaslik maqomi berilgan muddati o’tgan kreditlar bo’yicha hisoblangan foizlarning balansdan chiqarilishi kreditlardan olingan foizli daromadlarning kamayishiga sabab bo’ladi.

c) Muddati o’tgan kreditlarga tashkil qilingan ehtimoliy yo‘qotishlar zahirasi bankning daromadlarining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. YTTB

eksportlarining tavsiyasiga ko'ra, kreditlardan mo'ljallangan zararlarni qoplashlariga mo'ljallangan ehtimoliy yo'qotishlar zahirasi so'mmasi bank aktivlarining o'rtacha yillik so'mmasining 0,5 yizidan oshmasligi kerak.

Biz quyidagi jadval ma'lumotlari orqali ATIB "Ipoteka bank"da muddati o'tgan kreditlarning dinamikasini tahlil qilamiz.

2.1.2-jadval

ATIB "Ipoteka bank"da muddati o'tgan kreditlari dinamikasining tahlili

№	Ko'rsatkichlar	2005	2006	2007	2008	2009	2010
1	Muddati o'tgan kreditlar-ning kredit qo'yilmalar-ning umumiy salmog'i	0	0,1	0,1	2,0	0,0	0,0
2	Kredit riskiga qarshi ehtimoliy yo'qotishlar zahirasi bank operatsion xarajtlari hajmidagi salmog'i foizga	0	7,7	6,4	7,9	6,5	5,9

2.1.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, ATIB "Ipoteka bank"da 2005-2010 yillar mobaynida muddati o'tgan kreditlar muammosining chuqurlashishi yuz bermaydi. Chunki, xalqaro bank amaliyotida muddati o'tgan kreditlar miqdorining brutto kreditlar hajmidagi salmog'ining 3 foizdan oshmasligi mo'tadil holat hisoblanadi.

ATIB "Ipoteka bank"da 2005-2007 yillar mobaynida muddati o'tgan kreditlar vujudga kelishi kuzatildi. Bu esa o'z navbatida, ular bo'yicha shakllantirilgan ehtimoliy yo'qotishlar zahirasi bank operatsion xarajtlar hajmidagi salmog'ining pasayishi tendensiyasi ijobiy holat hisoblanadi.

Ehtimoliy yo'qotishlar zahirasi shakllantirilishi va ishlatilishi bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini asosiy vositalarning qiymatini qoplash maqsadida tashkil etiladi. Ehtimoliy yo'qotishlar zahirasi va kreditlarning qiymatini tiklash maqsadida shakllantiriladi. Shu sababli, kreditlar bo'yicha tuziladigan ehtimoliy yo'qotishlar zahirasi banklarning operatsion harajat sifatida e'tirof etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

2.2. Kredit riski darajasining tijorat banki portfeli samaradorligiga va uni optemallashtirishga ta'siri

Kredit riski tijorat banki kredit portfeli tarkibi bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Chunki kreditlarning stavkalari darajasining o'zgarishi natijasida bankning daromadlari tebranishiga, fikrimizcha eng avvalo kredit portfelinining tarkibiy sifati ta'sir etadi.

Tijorat bankining kredit siyosaida ham kredit portfelinini shakllantirish va uni boshqarish muhim ro'l o'ynaydi. Bu borada, tijorat bankining kredit portfeli deganda turli xil kredit risklariga qarab turkumlangan kreditlar miqyosidagi bank talablarining yig'indisi tushiniladi.

Kredit portfelinini to'g'ri shakllantirish tijorat bankining samarali va barqaror faoliyat ko'rsatishning asosiy me'oni hisoblanar ekan, har qanday tijorat banki kredit portfelinining sifatli bo'lishini ta'minlashi lozim. Bu esa, tijorat banklari tomonidan kredit portfelinini shakllantirishda alohida e'tibor uning tarkibiy qismiga qaratishni taqazo etgan.

Kredit portfelinini shakllantirish jarayoni murakkab jarayon bo'lib o'zida nafaqat kredit siyosati va uning strategiyasi, balki nazorat tizimini yo'lga qo'yish jarayonlarini mujassamlashtiradi. Shu bilan birga, kredit portfelinini shakllantirish jarayoni dinamik xarakterga ega bo'lish doimiy ravishda harakatdadir.

Kredit portfelinini shakllantirish bank tomonidan kreditning asosiy tamoyillariga rioya etishni risk darajasini inobatga olgan holda kreditlar sifatini belgilash va turkumlashni kreditlar bo'yicha zaruriy zahiralarini tashkil etishni va kredit portfeli sifatini yaratilish borasida chora-tadbirlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Respublikamiz tijorat banklari kredit portfeli sifatini belgilash o'zbekiston respublikasi markaziy banki boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan "Tijorat banklari va ularning filiallari tomonidan aktivlar sifatini tasniflash, ssudalar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar o'rnini qoplash uchun tashkil etiladigan zahirani shakllantirish va undan foydalanish tartibi"ga muvofiq tijorat banklari qo'yilmalarini "yaxshi", "standart", "subtandart" "shubxali", "umidsiz" turlariga turkumlanadi.

Tijorat banki kredit portfelinining tahlil qilish, sifatini oshirish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarning oldini olish har qanday bank boshqaruvi oldida turadigan muhim vazifadir. Shu bois, tadqiqotimiz maqsadida ATIB "Ipoteka bank" kredit portfelinini tahlili asosida undagi ro'y bergan tendensiyalarga izoh berishga harakati qilamiz.

ATIB “Ipoteka bank” kredit portfelining sifat bo'yicha tasnifi (foiz hisobida)

№	Ko'rsatkichlar	2005	2006	2007	2008	2009	2010
1	Bankning kredit qo'yilmalari jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
2	Shu jumladan						
2	Yaxshi kreditlar	95,3	96,8	95,7	9,5	96,0	95,3
3	Standart kreditlar	3,8	2,5	2,9	3,3	2,1	2,8
4	Substandart kreditlar	0,5	0,5	0,6	0,4	0,8	0,7
5	Shubxali kreditlar	0,3	0,2	0,3	0,4	0,7	0,6
6	Umidsiz kreditlar	0,1	0,0	0,5	0,0	0,4	0,6

2.2.1-jadvaldan ko'rinib turganidek, tahlil qilinayotgan davrda ATIB “Ipoteka bank” tomonidan berilgan kreditlarning asosiy qismi sifat darajasi bo'yicha yaxshi kreditlar guhini tashkil etadi. Standart kreditlar banklarning kredit portfelida so'ngi salmoqli o'rin tutib, tahlil e'tayotgan davrning oxirida tegishli ravishda 2,8 foizni tashkil etgan.

Shu bilan birga bankning kredit portfelida shubhali va umidsiz kreditlar ham mavjud bo'lib, ohirgi davrda ularning salmog'i kamayib bormoqda. 2010 yilda 2005 yilga nisbatan ATIB “Ipoteka bank”ning yaxshi kreditlarining hajmi 0,3 foizli punktga o'sishi bilan bir qatorda portfeldagi boshqa kredit guruhlarining hajmi psayib bormoqda. Umuman olganda ushbu bank kredit portfelidagi yaxshi kreditlar hajmini yaqori salmoqqa egaligi nafaqat portfel sifatida, balki bank faoliyati samaradorligini oshirishiga munosib hissa qo'shgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Shu bilan bir qatorda, aytish mumkinki, tahlil etilayotgan davrda ATIB “Ipoteka bank” ning kredit qo'yilmalari uzoq muddatli xarakterga egadir. Ushbu holatni makroiqtisodiy nuqtai nazardan ijobiy baholanishi bilavn bir qatorda banklarning riskga ta'sirchanligi va daromadliligi nuqtai nazardan ijobiy baholab bo'lmaydi. Chunki, kredit qo'yilmalarini uzoq muddatliliqi quyidagi risklar bilan chambarchas bog'liqdir:

- makroiqtisodiy muhitning yomonlashuvi;
- kredit qo'yilmalari amalga oshirilgan tarmoq va sohaning yomonlashuvi;
- mijozning moliyaviy aholi yomonlashuvi;
- kredit ta'minotining vaqti o'tishi bilan bozor qiymatining tushib ketishi.

Bundan tashqari tijorat banklarining daromadligi nuqtai nazaridan yondashishganda, amaliyotda qisqa muddatli kredit qo'yilmalari yuqori rentabnlilik sohalarga ajratilib, uzoq muddatli kredit qo'yilmalariga nisbatan aylanish koefetsinti yuqori bo'lib banklarning daromadliliqi yuqoriroq bo'lishini ta'minlaydi.

Uzoq muddatli kreditlar bo'yicha mijozlar tomonidan tegishli to'lovlarni amalga oshirishga bankning moliyaviy aholigi salbiy ta'sir ko'rsatib, uning daromadlilik, likvidlik va to'lovga layoqatlik ko'rsatkichlarining tushib ketishiga

sabab bo'ladi. shu sababdan, kredit portfelining sifatini doimiy ravishda nazorat qilish tijorat banklar faoliyatining samaradorligini ta'minlash zarurdir. Buning uchun tijorat banklarining ma'sul hodimlari bank mijozlarining joriy faoliyatlaridan bohabar bo'lishlari, makroiqtisodiyotga va tarmoqlarga oid ma'lumotlarni muntazam ravishda tahlil qilib borishlari lozim. Bank amaliyotida loyihalarni ekspertiza va loyihalarni amalga oshirish jarayonini qattiq monitoring tizimini yo'lga qo'yilishi bu boradagi amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarning ustuvor yo'nalishidir.

Ma'lumki, kredit portfelini boshqarish bu mavjud kredit resurslaridan samarali foydalanish san'ati demakdir. YA'ni samarali boshqaruv natijasida kredit resurslari nafaqat o'zining qiymatini saqlab qoladi, balki sezilarli darajada daromad keltiradi.

Kredit portfelini boshqarishning asosiy bosqichidir quyidagilardan iboratdir.

1. Kreditning maqsadi, ya'ni boshqarish siyosati strategiyasi determinantlarini aniq belgilab olish;
2. Turli kreditlarning daromadlilik darajasi to'g'risidagi taxminga ega bo'lish;
3. Tanlab olingan vositalarning oqilona nisbatini ta'minlash maqsadida taxminlar ustuvorligini aniqlash.
4. Portfel tarkibida tub o'zgarishlarga sabab bo'luvchi omillarni doimiy tarzda tahlil qilish va o'rganish;
5. Portfel faoliyatini baholash, ya'ni kredit riskiga nisbatan portfeldan olinadigan daromadlarga baho berish.

Kredit portfelini boshqarishning tarkibiy qimlarini batafsilroq ko'rib chiqsak, kredit portfelini shakllantirishning muhim shartlaridan biri kreditning maqsadini aniq belgilab olishdan iborat. Kredit maqsadidan kelib chiqib, kreditlarning quyidagi guruhlariga ajratishimiz mumkin:

- Kapitalning o'sish, ya'ni kelajakda barqaror daromadlar olishga mo'ljallangan uzoq muddatli kreditlar;
- Tez muddatlarda daromad olish, ya'ni spekulativ daromadlarni olishga mo'ljallangan qisqa muddatli kreditlar.

Aytish joizki, agar kreditdan maqsad qisqa muddatda daromad olish bo'lsa, u holda kredit riskining yuqoriligini hisobga olgan holda foiz stavkasini yuqori belgilash maqsadga muvofiq. Bunday tashqari kreditlarni baholashda nisbiy (obligatsiyalarning daromadligiga nisbatan kreditlarga baho berish), omilli (daromadlar, dividendlar pul oqimini tahlil qilish), dinamik (oldingi faoliyatini, joriy operatsiyalarni tahlil qilish va istiqbol ko'rsatkichlarini aniqlash) ko'rsatkichlardang foydalanish lozim.

Kreditdan olinadigan foiz va obligatsiyalar daromadlarini baholash havf-xatarlarni baholash bilan chambarchas bog'liq. Har bir kredit turining risk darajasi kredit oluvchining likvidligi va darajasi, kreditning daromadlilik va barqarorligi bilan teskari mutanosib bog'lanishga ega.

Omilli tahlil, kredit samaradorligini omili tahlil qilishdap quyidagi ko'rsatkichlarni hisobga olish lozim. Kritilayotgan investitsiyalarning qoplash muddatit. Bu ko'rsatkich kredit qiymatini sof foyda nisbati bilan aniqlanadi. Masalan, kredit qiymati 30 birligini sof foyda esa 6 birlikni tashkil etsa, u holda

qoplanish muddati $30:6=5$ yilni tashkil etadi. Ammo jahon bozorida kompaniyaning qoplanishi muddati 7 yilni tashkil etganligi tufayli bu kompaniya arzon hisoblanadi.

Bundan tashqari, kredit samaradorligini aniqlashda qoplash koeffitsientini hisoblash zarur. Bu ko'rsatkich kredit foizining kreditdan olinadigan daromadga nisbati sifatida aniqlanadi. Agar bu koeffitsient 1 yoki 1 ga yaqin bo'lsa, u holda keyingi yilda daromadlar pasayadi va kredit foizi qoplanmay qoladi. Qoplash koeffitsienti 2 dan kam bo'lmazligi lozim.

Kredit berish jarayonida loyihalarning sof keltirilgan qiymatini hisoblash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu ko'rsatkich nafaqat loyihaning samaradorligini balki pulning vaqt o'lchovni hisobga olgan holda uning foydalilik darajasini ham belgilab beradi.

Loyihalarning ichki daromadlilik ko'rsatkichini hisoblash omilli tahlilning ajralmas qismidir. Ushbu ko'rsatkich loyihaning samaradorligini belgilab berish bilan bir qatorda daromadlilikni nisbiy solishtirishga imkon beruvchi vositadir ham.

Kredit samaradorligini omilli tahlil qilishda ushbu ko'rsatkichlardan foydalanishning muhim jihati shundan iboratki, mazkur tahlillar kredit oluvchi bank mijozining moliyaviy holatini chuqur tahlil etishini talab etadi. Chunki loyiha naqadar mukammal ishlab chiqilgan bo'lmasin, agar loyiha tang bo'lsa, uni samarali amalga oshirishi gumondir.

Kreditlarni baholashda ko'pgina mutahassislarga qo'l keladi. Chunki bu usul nafaqat kredit oluvchi mijozning joriy faoliyatini, balki istiqbol ko'rsatkichlari asisida hulosa qicharishga imkon beradi.

Bank iqtisodiyotga kredit qo'yilmalarini amalga oshirar ekan, bank o'zining kelajakdagi daromatlari va kredit riskini baholash uchun iqtisodiyotning uch darajasida fundamental tahlilni amalga oshirishi lozim. Aytish joizki, aynan ushbu tahlillar orqali mukammal moliyaviy zararlar qabul qilish imkoniyati tug'iladi.

Kredit resurslaridan samarali foydalanish maqsadida korxonaning faoliyatini vaqt davomida o'zgarishini tahlil etgan holda istiqbolda korxona faoliyatining turli variantlarini operativ tarzda ishlab chiqish, foyda dinamikasi va tarkibi nuqtai nazaridan eng istiqbolli obyektlarni tanlab olish zarur.

Quyidagi matritsa yordamida mavjud kredit resurslarini hisobga olgan holda kredit portfelini boshqarishning eng yaxshi taktikasini tanlash mumkin.

Kredit portfelini boshqarish taktikasini tanlash matrastsasi

Kreditni turini tanlay olish qobiliyati	Bozor holatini oldindan qayta olish qobiliyati	
	Yaxshi	Yomon
Yaxshi	1.Kredit resurslarini diversifikatsiya orqali tanlangan sohalarga jamlash; 2.Bozor holatini oldindan aytish ma'lumotlariga asoslanib riskni uzoq muddatli meyoriy darajasidan past yoki yuqori qilib belgilash.	1.Kredit resurslarini deversifikatsiyalamasdan tanlangan sohalarga jamlash. 2.Risk uzoq muddatli meyoriy darajasida saqlab turish.
Yomon	1.Diversifikatsiyalangan portfelga egalik qilish. 2.Bozor holatini bashoratlash ma'lumotlariga asoslanib riskni meyoriy darajada saqlab turish.	1. Diversifikatsiyalanmagan portfelga egalik qilish. 2. Risk uzoq muddatli meyoriy darajasida saqlab turish.

Ushbu matrastsadan foydalangan holda kredit portfelini boshqarishning samarali taktikasini tanlab olish mumkin. Agar tijorat bankining mijozlarni tanlash qobiliyati yaxshi bo'lmasa, u holda u o'z kredit portfeli uchun umumiy risk darajasini aniqlashga asosiy e'tiborni qaratgan holda mijozlarni tanlashi va bundan so'ng risk darajasi o'zgaras bo'lgan diversifikatsiyalashgan portfelni shakllantirishi lozim.

Agar tijorat banki bozor holatini yaxshi bashoratlay olishiga ishonsa bu holda u o'zining kredit portfelini tarkibini bozor o'zgarishlariga qarab o'zgartirishi mumkin va nihoyat, tijorat banki istiqboli sohalarni aniq bilsa, u holda diversifikatsiyalashdan voz kechishi va kredit resurslarini eng yuqori daromad beruvchi sohalarga joylashtirish mumkin.

Tijorat banki tomonidan kredit portfelini boshqarish haqida gapirar eanmiz aytish lozimki, so'ngi yillar davomida mamlakatimiz tijorat banklari faoliyati bank kengayishi tomonidan tasdiqlangan. Ushbu strategik rejalarga ko'ra quyidagi yo'nalishlarda qator vazifalarni hal etish rejalashtirilgan strategik rejada ham ichki, ham tashqi manmalar hisobidan banklarning kapital hajmini oshirib borishi belgilab qo'yilgan. Ushbu vazifaning bajarilishidan bankning tegishli kapital darajasini ta'minlashning qisqa va uzoq muddatli vazifalar kelib chiqadi.

Mablag'larni jalb etishning manbalari sifatida banklar quyidagilarni aniqlaydi:

- yuridek va jismoniy shaxslar manbalari, mablag'lar jalb etishning bu manbasi bank pasiviningasosiy qismini tashkil etish, bankning qisqa va uzoq maddatli qo'yilmalarining barqarorligini ta'minlaydi;


- kredit muassasalari mablag'leri. Bankning bu pasivi tezkor qo'yilmalarni moliyalashtirish va bankning qisqa muddatli likvidligini ta'minlash uchun cheklangan miqdorda qo'llaniladi;
- bangning qarz majburiyatlari. Bu manba bank passivining kichik qismini tashkil etish, qimmatli qog'ozlar bozorida faolligi bilan tavsiflanadi;
- xalqaro moliya bozorida jalb etiladigan mablag'lar. Bu manba investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni kengaytirish uchun uzoq muddatli passiv hisoblanadi;
- markazlashtirilgan resurslar. Tjorat bankining ushbu passiv davlat dasturlari asosida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni ta'minlash maqsadida jalb qilinadi.

Banklar o'z faoliyatini takomillashtirish, xususan, kredit portfelini sog'lomlashtirish maqsadida mijozlarning iste'mol va boshqa e'tiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan bank dipozitlarining mushtarakligini ta'minlovchi yangi moliyaviy ma'sulotlarni taqdim etish orqali aholining jamg'arish va investitsion faoligini rag'batlashtirish asosida jismoniy shaxslar bilan ishlarni faollashtirishga alog'ida e'tibor qaratmoqda.

Tijorat banklari jismoniy va yuridek shaxslarning mablag'larini qarz majburiyatlarini emissiya qilish va bank sertifikatlarini chiqarish yo'li orqali jalb etish amaliyotini faollashtirilmoqda. Bunday amaliyotidan maqsad ushbu resurs turining bank tomonidan jalb qilingan jami mablag'laridagi ulushini oshirishdir. Bu esa, tijorat banklarida barqaror resurs manbaini kengaytirishga va natijasida bankning investitsion faoliyatini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz tijorat bankida riski darajasini optimallashtirish maqsadida uning samarali kredit portfelini tarkib toptirish yo'nalishlarini quyidagicha ifodalashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Zamonaviy tijorat bankning samarali kredit portfelini tarkib toptirish yo'nalishlari



Rasmdan ko'rinib turganidek, samarali kredit portfelini tarkib topishida tijorat banki resurslarni joylantirish sohasidagi uchta muhim yo'nalishining oqilona nisbatiga erishishga harakat qilishi lozim

1. Musaffo rivojlanish mehanizmi doirasida amalga oshayotgan investitsiya loyihalarini kreditlash bank resurslarini oqilona joylashtirishning asosiy yo'nalishi bo'lib, milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

2. Resurs joylashtirishning istiqboli yo'nalishlaridan biri jismoniy shaxslarni kreditlashdan iborat. Chunki kreditlashning ushbu yo'nalishi nafaqat riskni diversifikatsiya qilish, balki yaxshi daromaj ko'rish imkoniyatini ham beradi.

3. O'zbekiston Respublikasining istiqbolli korxonalari bilan uzoq muddatli hamkorlik qilish orqali yuqori dividendli daromadlar olish va ushbu korxonalarni boshqarishda ishtirok etish.

Ishning ushbu qismida amalga oshirilgan tadqiqotimizdan quyidagilarni hulosa qilishimiz mumkin.

ATIB "Ipoteka bank"ning kredit portfelli sifqat jihatidan yaxshi bo'lishiga qaramasdan, portfelida muammoli kreditlarni mavjudligi ushbu banklar kredit siyosatlarini shakllantirish va amalga oshirish jarayonlarida ma'lum kamchiliklarga yo'l qo'yilganligidan dalolat beradi.

Tihlil natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida tijorat banklari tomonidan kredit berish jarayonida mijozning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari, shu jumladan ularni moliyaviy aholi va biznes rejasini chuqur tahlil etish tizimini yo'lga qo'yish lozim.

Tijorat bank tomonidan to'g'ri baholanib rasmiylashtirilishi, kredit portfeliga kiruvchi har bir guruhi borasida muntazam ravishda (har chorakda) monitoring tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish hamda aniqlangan muammolarni tezda bartaraf etish tizimi.

III.bob. Jahon moliyaviy-iqtisodiy infirozi sharoitida banklarning kredit siyosatini takomillashtirish yo‘llari.

3.1. Jahon moliyaviy-iqtisodiy infirozining tijorat banklarining siyosatiga a’siri

2007 yilda yuz bergan va 2008 yilda tobora chuqurlashgan jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi tijorat banklarining kredit portfelini shakllantirishda va mijozlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifatiga jiddiy tarzda salbiy ta’sir qildi. Ushbu salbiy ta’sir birinchi navbatda tijorat banklarida likvidlik muammosining chuqurlashganligi va hatto ayrim yirik banklarning joriy likvidligini yo‘qotib fo‘yganligida nomoyon bo‘ldi. Tijorat banklari likvidligi masalasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari” nomli asarida asoslab berilgan. Prezidentimiz I.A.Karimovning fikriga ko‘ra, “bu inqiroz Amerika qo‘shma shtatlarida ipoteka kreditlash tizimida ro‘y bergan tanglik holatidan boshlandi. So‘ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik ya’ni to‘lov qobiliyati zaiflashib moliyaviy inqirozga aylanib ketdi²”. Bu o‘rinda Prezidentimiz ipoteka kreditlarining qaytmasligi natijasida banklarning likvidligini kekin pasayganligini va natijada banklar tomonidan mijozlarga ko‘rsatilayotgan kreditlash, investitsiya, anderayting, hisob kitob xizmati ko‘rsatishning hajmi va sifatiga nisbatan salbiy ta’sirining yuzaga kelganligi qisqa va aniq qilib tununtirib berilgan. Haqiqatdan ham 2007 yilning o‘rtalariga kelib AQSH banklari to‘lov qobiliyati past bo‘lgan mijozlari juda katta miqdorda ipoteka krediti berib yubordilar. Qo‘zg‘almas mulklarning bahosi yuqori darajada pasayganligi tufayli AQSH banklari kreditlarni qayta moliyalashtira olmaydilar. Buning natijasida ipoteka obligatsiyalarining bozor boholari keskin pasayib ketdi. Jahon moliyaviy inqirozining chuqurlashtirishi muddati o‘tgan kreditlarning brutta kreditlar hajmiga sabab bo‘ldi. Chunki kreditlarning qaytmasligi banklarning “Nostro” vakillik hisobraqamlari qoldig‘ining keskin kamaytirishiga olib keladi. Odatda, AQSH va ZG‘arbiy Yevropadagi tijorat banklari likvidlik muammosi yuzaga kelganda banklararo ssuda jalb qilish yo‘li bilan mazkur muammoni hal qiladilar. Ammo jahon moliyaviy inqirozi banklararo ssuda kapitallari bozoridagi resurslar bahosining keskin oshishiga olib keldi. Masalan, 2008 yilning sentabr oyining birinchi yarmida London ssuda kapitallari bozorida LIBOR ning yillik darajasi ikki marta ko‘tarildi va 6,44 foizga etdi. Banklararo ssuda kapitallari bozoridagi resurslar depozitli resurs manbalariga nisbatan qimmat hisoblanadi. Shu sababli, ulardan doimiy ravishda foydalanish tijorat banklarining foizli harajatlari miqdorining oshishiga va shuning natijasida sof foizli daroadi miqdorining kamayishiga olib keladi. Lekin ushbu resurslar tijorat banklarining likvidligini ta’minlashda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

² Prezidenti I.A.Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari” asaridan.

Banklararo resurslar bozorida resurslarning keskin qimmatlashishi sharoitida likvidlik muammosining chuqurlashishi to'lovga qobilligi yetarli deb hisoblangan banklarning ham bankrot bo'lishiga olib keldi. Bunga misol qilib Buyuk Britaniyaning 150 yillik tarixiga ega bo'lgan Brodford I Bindliy bankining bankrot bo'lganligini kreditlash mumkin. Bank inqirozga qadar yuqori kredit reytinga ega bo'lgan kredit instituti hisoblanar edi. Uning Buyuk Britaniya ipotika kreditlari bozoridagi salmog'i 3 foizni tashkil qilar edi. Jahon moliyaviy inqirozining ta'sirida ushbu bankning ipoteka aktivlarining bozor sohasi shu qadar pasayib ketdiki, 2008 yilning iyul oyining ohiriga kelib, uning sof zarari miqdori 400 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda kreditlash tijoarta banklari faoliyatining asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Shu sababli, jahon moliyaviy inqirozining banklarning kreditlash faoliyatiga nisbatan yuzaga kelgan salbiy ta'siri oqibatida ularning sof foydasi miqdori keskin kamaydi. Masalan, dunyoning eng yirik tijorat banklaridan biri bo'lgan "Deutsche Bank"ning sof foydasi 2007 yilning to'rtinchi choragida 48 foiziga kamaydi.

Yuqorija qayd etilgan holatlar jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining tijorat banklarining kreditlash operatsiyalariga pisbatan yuzaga kelgan salbiy ta'siri darajasining yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Tijorat banklarining likvidligi va to'lovga qobilligi bo'yicha mavjud iqtisodiy meyorlarning buzilishi ular orqali amalga oshirilayotgan hisob kitoblarning uzluksizligini ta'minlash imkonini bermaydi. Xalqaro hisob kitoblar bankning bergan ma'lumotlariga ko'ra dunyoning 150 dan ortiq mamlakatida tijorat banklarining to'lovga qobilligini ta'minlash maqsadida Xalqaro Bazil qo'mitasining ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan ikki kaffitsent umumiy kapitalning yetarlilik koeffitsenti va asosiy kapitalning yetarlilik koeffitsentidan foydalanilmoqda. Tijorat banklari umumiy kapitalning yetarliligiga nisbatan belgilangan minimal talab 8 foizni asosiy kaptalning yetarliligiga nisbatan belgilangan minimal talab esa, 4 foizni tashkil etadi. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining ta'siri natijasida koplal mamalakatlarda tijorat banklari mazkur ikki koeffitsentning normativ talabini buzish hollariga yo'l qo'yishdi.

Jahon moliyaqiy iqtisodiy inqirozining bank tizimida nisbatan salbiy ta'sirini bartaraf etishda qatormamlakatlarda turlicha choralar va yo'llardan foydalanildi. Ammo dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida hususan, AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Rassiya inqirozning bank tizimiga ta'siri oqibatidarini bartarf etishda banklarning kapitallashish darajasini oshirish yo'lidan foydalanildi. Masalan, AQShda inqiroz davrida banklarning kapitallalish darajasini oshirish uchun 714 mlrd AQSH dollari, Rassiya 185 mlrd AQSH dollari, Germaniyada 177 mlrd. so'm, Buyuk Britaniya 79 mlrd AQSH dollari sarflandi.

O'zbekiston Respublikasida ham jahon moliyaviy inqirozining banklarning likvidligi va to'lovga qobilligiga nisbatan salbiy ta'siriga barham berish maqsadida ularning kapitallarshish darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasida Prezidentining 2005 yil 15 apreldagi PQ/56 sonli qaroriga asosan, tijorat banklari aksiyalari bo'yicha jismoniy shakslarning dividend tarzida olinadigan daromadlari 2010 yilning 1 yanqvariga qadar soliqqa tortishdan ozod

qilindi, tijorat bankining kapitali bank aktivlari umumiy miqdorining 10 foizidan kam bo'lishi mumkin emaligi qat'iy belgilab qo'yildi. Bundan tashqari, Prezidentimizning 2007 yil PQ 726 sonli qarori muofiq 2008 yil 1 yanvardan boshlab tijorat banki ustaq kapital eng kam miqdori tijorat banklari, shu jumladan qo'shma banklar uchun 5 mln. Yevro pkvivalenti miqdorida, xususiy banklar uchun 2,5 mln yevro miqdorida belgilandi. Bankdan tashqari, Prezidentimiz Farmoni asosida kichik biznes va huquqiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlar bilan ta'minlashga xizmat qilayotgan. "Mikrokreditbank" ustav jamg'armasini 72 mlrd so'mda oshirish va uning hajmini 150 mlrd so'mga yetkazish haqida qaror qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasida ham moliyaviy iqtisodiy inqiroz sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarni davlat tomonidan moliyaviy qo'llar-quvvatlash usulidan foydalanilmoqda. Xususan, fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat tomonidan katta miqdorda moliyaviy va moddiy resurslar ajratilmoqda. Birgina 2009 yilning o'zida qishloq xo'jalik mahsulotlarining eng muhim turlarini yetishtirish uchun 1 trln so'm, jumladan paxta tayyorlashga 800 mlrd so'm mablag' avans tariqasida berildi. 2010 yilda ushbu maqsadlar uchun 1 trln 200 mlrd so'm miqdordagi pul mablag'larini ajratish ko'zda tutilgan. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi davlat ehtiyojlari uchun yetishtiriladigan qishloq xo'jalik mahsulotlarini harid qilish fondi hisobidan qishloq xo'jalik texnikasini lizing asosida sotib olish maqsadida 2009 yili 43 mlrd so'mdan ziyod mablag' ajratildi. Hozirning o'zidayo'q, O'zbekiston hukumati tomonidan fermerlar moliyaviy qo'llab-quvvatlash lizing o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. 2008 yilda fermer xo'jaliklarining paxta yetishtirishdagi usishi 99,1 foizni g'alla yetishtirishdagi salmog'i esa, 79,2 foizni tashkil qildi.

Prezidenti "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarida tijorat banklari kredit operatsiyalvri sifatini oshirishning alohida yo'nalishi qishloq joylarda istiqomat qiluvchi aholiga va va tadbirkorlik subyektlariga banklar tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy xizmalarni takomillashtirish yo'nalishi taklif qilindi. Prezidentimizning fikriga ko'ra "Alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan navbatdagi eng muhim ustuvor vazifa qishloqda turmush darajasini yuksaltirishga qishloqlarimiz qiyofasini o'zgarishga qaratilgan uzoq muddatli va bir biri bilan chambarchas bog'liq keng ko'lamlı chora Prezidenti I.A.Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" asaridan tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o'rni va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqish, fermer xo'jaliklari rivojini har tomnlama qo'llab Prezidenti I.A.Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" asaridan quvvatlashdan iborat". Anashu maqsadda Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan qishloq infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qilish bilan shug'ullanayotgan alohida banklar tashkil etish g'oyasi ilg'or surildi. Natijada O'zbekiston Respublikasi 2008 yil 30 martdagi PQ 1083 sonli "Qishloq qurilish bank aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoniga

muvofiq, G'allabank aksiyadorlik tijorat banki negizida ustav kapitali 150 mlrd so'm miqdorida shakllantiriladigan aksiyadorlik tijorat "Qishloq qurilish" tashkil etildi³.

"Qishloq qurilish bank" aksiyadorlik tijorat banki aholi va tadbirkorlik subyektlariga bir necha turdagi moliyaviy xizmat ko'rsatadi. Ushbu xizmatlarni ko'rsatishda quyidagi xizmat turlariga alohida s'tibor qaratiladi.

- uy-joy kammunal, ijtimoiy soha va qishloq aholi punkitlarini obodonlashtirish borasidagi ahtiyojlarni amalga oshirishga aholi hamda yuridik shaxslarga kredit berish va bank xizmatini ko'rsatish;

- qishloq joylarda tasdiqlangan namunaviy loyihalar bo'yicha uy-joylar, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma abyektlarini qurish hamda ta'mirlashni mamalga oshirishga oshiradigan ixtisoslashtirilgan pudrat tashkilotlarga kredit berish va lizing xizmatlarini ko'rsatish;

- yangi zamonaviy qurilish materiallari va konstiusiyalari ishlab chiqaradigan tasdialangan namunaviy loyihalar bo'yicha qishloqda obyektlar industrial va yig'ma texnologiyalarini joriy etadigan barcha mulkchilik shaklidagi korxonalarga kredit berish va kompleks tarzda bank xizmatlarini ko'rsatish;

- qishloq qiyofasini sifatli yaxshilashni, qishloq joyylarda muhandislik hamda ijtimoiy infratuzilmani rivolantirish va takomillashtirishni jumladan yo'llar, energiya va suv ta'minoti tizimlari, qishloq vrachchlik punktlari , maktablar, bolalar sporti obektlarini rekonstruksiya qilish, qishloq aholi punktlarini transport komunikatsiyalari, ichimlik suvi, ko'rsatish va servis sohasi obyektlari, telekomunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlashni nazarda tutgan holda investitsiya faoliyatini olib borish, ushuningdek loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni moliyalashtirish;

- unversal tijorat sifatida yuridik va jismoniy shaxslarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa kompleks bank xizmatlarini ko'rsatish.

Shuningdek qishloq xo'jaligiga bank xizmati ko'rsatishni takomillashtirish, fermer xo'jaliklarini qo'llab quvvatlash, ularning oddiy texnik bazasini mustahkamlab borish, ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy texnologiyalar va uskunalarni tatbiq qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 martdagi PQ 1084 sonli "Agrobank aksiyadorlik tijorat bankining tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

³ I.A.Karimov 2009 yil 30 martdagi PQ 1083 sonli "Qishloq qurilish bank" aksiyadorlik tijorat banki tashkil etish to'g'risida"gi Farmon.

3.2. Banklarda kredit takomillashtirish ta'minoti siyosatini yuksalishlari

Prezidentining "2011-2015" yillarda respublika moliya bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi 2010 yil 26 noyabrda 1438-sonli qarorida ko'zda tutilgan O'zbekiston Respublikasi "Garov reyestri to'g'risida"gi qonuni loyihasi ham shular jumlasidandir⁴.

Garov reyestrlarini tashkil etishning zaruriyati qarzdorning boshqa choyga o'z majburiyatini bajarmagan taqdirda qarzni o'ndirish ketma-ketligini aniqlash masalasida kelib chiqqan.

Ma'lumki, bir shaxs bir mulkni bir necha majburiyat ta'minoti uchun bir necha marta garovga qo'yishi mumkin. Odatda yesa, kreditlar qarzdorning mulki boshqa joyda xam garovda yekanligidan bexabar bo'ladi. Biroq qarzdor o'z majburiyatini bajarmagan taqdirda, kreditorlarning o'rtasida qarzni undirish ketma-ketligini kabi munozarali masala paydo bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi xukumati davlat kadastrlarining yagona tizimini shakllantirish xamda ularni yaratish va yuritishga masul vazirlik va idoralar o'rtasida o'zaro axborot almashinuvini yulga qo'yish, kuchmas mulk va avtomototransport vositalarini boshqa shaxsga o'tkazishni taqiqlash, hatlash, fuqorolarning muomala layoqati bo'yicha nataruslar foydalanishiyeni ta'minlovchi avtomatlashtirilgan elektron tizimni yaratish borasida jiddiy ishlar olib bormoqda.

Biroq, bu garovga qo'yilgan mulkni garov restrida ro'yhatga olish tizimini tashkil etish uchun yetarli esam, bu ishlarni yanada rivojlantirish va takomillashtirish zaruriyati tug'ilmoqda. ya'ni, ma'lum bir shaxsning mulki yoki mulk garovda ekanligi to'g'risida ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, kreditorlarni g'abardor qilish hamda undirish ketma-ketligini aniqlash tizimiga e'tiyoj tug'ilmoqda. Mamlakatimizdagi shart-sharoit, horijiy tajribalarni va vujudga kelgan zaruriyatni o'rganish hamda tadqiq qilish natijasida ishlab chiqarilgan O'zbekiston Respublikasining "Garov reyestri to'g'risida"gi qonuni loyihasining ish faoliyatini tashkil etish konsepsiyasi to'g'risida quyidagi fikr yuritamiz.

Garov reyestri va unda garovga olingan mulkni unda ro'yxatga olish tizimining mohiyatini tushunish uchun quyidagi tushunchalarga e'tibor berishimiz kerak.

Garov reyestri-garovga olingan va garovdan chiqarilgan mulk hamda konkret shaxsning garovga olingan va garovdan chiqarilgan mulkni to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobga oluvchi elektron baza.

Garovga qo'yilgan mulkni restrda ro'yxatga olish garovga mulk qo'yilgan haqidagi reyestrga axborot yuborish orqali amalga oshiriladi.

Garovni reyestrda ro'yxatga olish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- reyestrda garov bitimlarini hisobga olish;

⁴ I.Karimovning 2011 yil va 2015 yillarda respublika moliya bank tizimini yanada isloh qilish to'g'risidagi 2010 yil 26 noyabrda 1438-sonli qarori.

- garov bitimini qaysi shaxs avval reyestrda ro'yxatdan o'tkazgan bo'lsa, boshqa kreditorlarga nisbatan ustunlikka egalik huquqini berish. YA'ni o'z haqini qarzdordan undirishda kreditorlarning ketma-ketlik navbatini tashkil etish;

- kreditorlarning garovdagi mulk, uni garovga qo'yuvchi, mulk egasi to'g'risida ishonchli va to'g'ri axborot olishlarini ta'minlash.

Garovni ro'yxatga olish subektlariga mulkni garovga olish shartnomasini imzolagan tomonlar yuridek va jismoniy shaxslar kiradi. Avvalombor, turli restr va kadastrlarni yurituvchi davlat idoralarida ishning avtomatlashtirilganlik hamda ilg'or axborot texnologiyalari bilan ta'minlanganlik darajasini o'rganib chiqish, davlat kadastrlarining yagina tizimini shakllantirish hamda ularni yaratish va yuritishga ma'sul vazirlik va idoralar o'rtasida o'zaro axborot almashinuvchini yo'lga qo'yish lozim. Shuningdek, ko'chmas mulk va avtotransport vositalarini boshqa shaxsga o'tkazishni taqiqlash, xatlash, fuqorolarning muomala layoqati bo'yicha nataruslar foydalanishini ta'minlovchi avtomatlashtirilgan tizimni mamlakatda kredit va garov axboroti almashishinuvini takomillashtirish, ayniqsa reyestr faoliyatini tashkil etish ishlariga ijobiy ta'sir qiladi.

Reyestr va kadastrlarni yurituvchi idoralarning zamonaviy taxnika vositalari va ilg'or axborot texnologiyalari bilan ta'minlash hamda axborotni yig'ish, qayta ishlash va taqdim etishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish, mavjudlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek bu ishlarni amalga oshirishning aniq manbalarini belgilab olish zarur.

Bundan tashqari, davlat idoralariga, kredit tashkilotlariga, tadbirkorlik subektlariga va aholiga garovni ro'yhatdan o'tkazish tizimining mohiyati va ahamiyatini tushuntirish ishlarini olib borish katta ahamiyatga ega.

Reyestr faoliyatining qonuniy asoslarini mustahkamlash uchun O'zbekiston Respublikasining "Garov reyestri to'g'risida"gi qonuni qabul qilinishi, bir qator qonun va qonunosti hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilishi, yangilari ishlab chiqilishi lozim. Fikrimizcha, qonunchilik bir qator shartlaprini ko'zda tutishi lozim.

Reyestr yagona bo'lishi, uning axborot bozori elektron shaklda yuritilishi kerak. Reyestrning egasi davlat idorasi bo'lishi lozim, ya'ni u davlat idorasi xuzurida tashkil etiladi va ishlaydi, to'lov asosida xizmat ko'rsatadi. U davlat garov reyestri deb atalishi lozim. Garov to'g'risidagi axborotning davlat reyestriga kiritilishi garovning davlat ro'yhatiga olinishi deb qabul qilinishi kerak. Reyestrda garovning barcha turlari to'g'risidagi axborot yig'iladi, saqlanadi, qayta ishlanadi.

Qarzdor o'z majburiyatini bajarmagan tartibda, qarzni undirish garovga qaratiladi. Kreditorlar foydasiga garovdagi mulkka egalik qilish huquqi ketma-ketlik tamoyili asosida amalga oshiriladi.

Garovga olingan mulkning reyestrda ro'yhatga olishning 2 ta shakli mavjud:

- reyestrda belgilangan kreditorlar doirasigina axborot yuboradi. Bunda tartib va mas'uliyat kuchayishidan umid qilish mumkin. Biroq, reyestrda axborot to'liq bo'lmaydi. Shuningdek, bu tartib xalqaro tashkilotlar (jahon banki XMK, YETTB) ning e'tiroziga ham sabab bo'ladi;

- reyestrda barcha yuridek va jismoniy shaxslar axborot yuborish huquqiga ega. Bu tartibda ancha keng tarqalgan, axborot nisbatan ko'proq yig'iladi.

Kiritilayotgan axborotda garov kimga tegishli ekanligi, kimning majburiyati uchun quyilganligi aniq ko'rsatilishi shart. Qonunchilikda, garovga olingan mulk haqidagi axborot olingan mulk haqidagi notarial tasdiqlangandan so'ng reyestrda yuborilishi to'g'risidagi shart ko'zda tutilishi ham mumkin. Lekin bu qoida xorijiy tajribada qo'llab-quvvatlanmaydi. Chunki o'ta shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilish xavfi ham mavjud.

Garov to'g'risidagi axborotni kiritgan shaxs, majburiyat bajarilgandan so'ng mulk garovdan ozod qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotni bir ish kuni ichida kiritishi shart. Bunda faqat mulkni garovga oluvchi shaxs mulkning garovdan ozod qilinganligi to'g'risidagi axborotni kiritish xuquqiga ega.

Reyestrda kiritiladigan axborot juda soddah, aniq xamda yeng zarur ma'lumotlarni o'z ichiga olishi zarur;

- garov tug'risidagi ma'lumot-garovning nomi va batafsil tavsifi, soni, miqdori, modifikatsiya raqami, zavodda chiqarilgan vaqti va qo'yilgan raqami, davlat raqami va boshqalardan iborat;

- kreditlar va mulkning yegasi to'g'risidagi ma'lumotlar kreditorning soliq tuloichining individual raqami (STIR), telefon raqami, manzili, faks raqami, elektron pochta manzili, agar jismoniy shaxs bo'lsa, qo'shimcha ravishda uning familiyasi, ismi, otasining ismi, pasport ma'lumotlari, STIR ni o'z ichiga oladi;

- qarzdor yoki mulkni garovga quyuvchi to'g'risidagi ma'lumotlar yesa qarzdorning STIRi, telefon raqami, adres, faks raqami, elektron pochta manzili, agar jismoniy shaxs bo'lsa, qo'shimcha ravishda uning familiyasi, ismi, otasining ismi, pasport ma'lumotlari, STIRidan tashkil topishi to'g'ri bo'ladi, deb xisoblaymiz. Shuni xam aloxida takidlash joizki, jismoniy shaxsning telefon raqami, manzili va boshqa shaxsiy ma'lumotlarini reyestrda yuborish xamda boshqa shaxslarga taqdim yetish masalasiga aloxida yetibor berish kerak.

Reyestrda uzliksiz ravishda axborot olish imkoni bo'lishi lozim. Undan olingan axborot bo'yicha qanday qaror qabul qilish foydalanuvchining mutloq xuquqidir, reyestr ma'lumotlaridan faqat axborot sifatida foydalaniladi.

Xulosa va takliflar

Dunyoning ko'pgina rivojlangan mamlakatlari tajribasi kichik biznesni iqtisodiy taraqqiyotning barqarorligini ta'minlashda va investitsiyalarni jalb qilishda asosiy vosita bo'lishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Respublikamizda banklarning kichik biznes loyihalarini tanlash, kompleks ekspertiza qilish va moliyalashtirish bilan bog'liq faoliyatidagi muammolarni o'rganish, hozirgi kunda tijorat banklarida:

- muddati o'tgan va sud jarayonidagi kreditlar so'mmasining oshib borayotganligi;
- garovga qo'yilgan va muddatida qaytarilmagan kreditlar evaziga olingan va mol-mulklarni baholash va ularni sotish bo'yicha aniq me'zonlarning yo'qligi;
- investitsion loyihalarni tanlashda bir qator holatlarga yo'l qo'yilayotganligi;
- loyihaning chuqur ekspertiza qilinmasligi va bu bo'yicha aniq meyoriy dasturiy tizimlarini mavjud emasligi;
- loyihani moliyalashtirish manbalarini oqilona foydalanmasligi kabilar muammolar borligini ko'rsatdi.

Tijorat banklari tomonidan loyihalarining oqilona tanlanmasligi, loyihani baholash, ekspertiza qilish kamchiliklar borligi va loyihaning xayotiy ekanligini o'rganish bo'yicha tadqiqotlarning olib borilmasligi oqibatida samarasiz loyihalarni moliyalashtirishda qabul qilinayotganligi, ularni moliyaviy holatini chuqur tahlil qilmasligi, shuningdek, mijozlarning kreditga layoqatliligini aniqlash masalasida mukammal metodik qo'llanmalarining yo'qligi oqibatida yuqoridagi kabi muammolar kelib chiqmoqda. Mijozlarning kreditga layoqatliligini aniqlash (ayniqsa kichik biznesda risk darajasining yuqoriligi samabli) masalasining dolzarbligi, bank amaliyotida tez fursat ijida moliyalashtirilayotgan korxonalarining kelgusida kredit va unga hisoblanadigan foizlarni o'z vaqtida qaytarish qobiliyatini aniqlash zaruriyati bilan bog'liqdir. Takomillashtirish bo'yicha olib borgan izlanishlarimiz natijasida mijozning kreditga layoqatliligi o'rganildi.

Xususan, tijorat banklarining kichik biznesni rolini yanada faollashuviga, ularning kichik biznesni moliyalashtirish bilan bog'liq faoliyatini yanada kengayishig'a xizmat qilishi va o'z ichiga quyidagi yo'nalishlarni olishi lozimligi to'g'risida xulosaga kelindi:

- Banklarning resurs bazasini mustahkamlash orqali kichik biznesni moliyalashtirish manbalarini kengaytirishlariga belgilanayotgan foiz stavkalarini tijorat banklari tomonidan mustaqil ravishda belgilash mexanizmini takomillashtirish;
- Kichik ko'shma korxonalar tizimini kengaytirish bo'yicha banklarning investitsion loyihalarini tanlash va erkinlashtirish;
- Muddatida qaytarilmagan kreditlarni undirish garov munosabatlarini rivojlantirish garovga olingan mol-mulkni sotish mexanizmini takomillashtirish;
- Banklarning kichik biznes va biznesni moliyalashtirishga imtiyozli soliqqa tortish mexanizmini soddalashtirish;
- Huquqmatning kafolati asosida kichik biznes subektlarining mexanizmini yaratish;

- Respublikamizning barcha hududlarida banklar tomonidan kichik biznesga tegishli loyihalarni teng taqsimlash prinsipi asosida moliyalashtirishni tashkil etish.

Bizningcha, ushbu yo‘nalishlar respublikamizda bank tizimini islox qilish jarayonini yanada chuqurlashtirishga, moliya bozoridagi erkin raqobatni hamda kichik biznesni rivojlantirishda yo‘naltirilgan bank faoliyatini rag‘batlantirishga katta ta‘sir ko‘rsatadi va natijada:

- bozor va kredit tavakkalchiliklarini hisobiga olgan holda, aktivlar passiflarni samarali boshqarishni ta‘minlovchi bank kredit siyosatini takomillashuviga;
- tijorat banklarida ichki kredit tizimini rivojlanishiga;
- kredit resurslarini, shu jumladan investitsion mablag‘larini kichik biznesning uzoq muddatli loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltirilishiga;
- investitsiya vositachilari sifatida banklarning rolini oshishiga;
- banklarning investitsiya loyihalari va dasturlarini mablag‘ bilan ta‘minlashda qatnashishini yangi shakllari va usullarini joriy etishga qaratilgan investitsiya siyosatini takomillashuviga;
- bank xizmatlarini kengaytirish va texnologiyalarini joriy etish asosida tijorat banklari bilan ularning mijozlari uyg‘unlashuviga erishish mumkin bo‘ladi.

Olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida respublikamizda banklarning kredit siyosatida yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish bo‘yicha quyidagi amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan xulosa va takliflarni shakllantirishda muvofiq bo‘ldik.

Xorijiy kredit liniyalari hisobidan tashkil etilgan ko‘pchilik kichik biznes korxonalarida tasdiqlangan biznes reja ko‘rsatkichlariga to‘la rioya etilayotgani yo‘q. Buning natijasida, ishlab chiqarish quvvatlari to‘la o‘zlashtirilmasdan va mahsulotni eksport qilish rejasi bajarilmasdan qolmoqda. Bunday holatlarning aksariyati hukumat kafolati asosida tashkil etilgan korxonalarda yuz bermoqda. Bu hol kreditlarni qaytarilishida ham muammolarni keltirib chiqarimoqda va mijozlarning xorijiy kredit liniyalaridan qarzlarni banklar o‘z valyuta mablag‘lari hisobidan to‘lashga majbur bo‘lmoqdalar. Bu bu o‘z navbatida banklarning likvidligiga salbiy ta‘sir etmoqda. Shu sababli, xorijiy kredit liniyalari hisobidan tashkil etilgan korxonalardan kreditlarni o‘z muddatlarida undirilishini ta‘minlash maqsadida, banklar ularning dastlab bulgilangan biznes reja asosida ishlab chiqarish quvvatlarini o‘zlashtirishini va mahsulot yeksporti bo‘yicha majburiyatlarni bajarishini doimiy monitoringgini kuchaytirishlarilozim.

Respublikamizda tijorat banklari tomonidan kichik biznesga ajratilayotgan kreditlar miqdori ularning kredit portfelida urtacha 20-25 foizni tashkil yetmoqda xolos. Bu esa tadbirkorlik subektlarining kreditlarga bulgan talabini to‘la qondira oladigani yo‘q. Shu sababli, tijorat banklarining kichik biznesni moliyalashtirishda ishtirok etishini kengaytirish maqsadida kichik biznesni moliyalashtirish bilan shug‘ullangan tijorat banklari va boshqa moliyatiruvchi institutlarga soliq imtiyozlari berilib ushbu imtiyozdan kelgan mablag‘larni ham kichik biznesni moliyalashtirilishiga yo‘naltirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. O‘z korxanasini yangidan tashkil etmoqchi bo‘lgan tadbirkorlarga kreditlar ajratishda banklar kredit summasining kamida 125 foizi miqdorida ta‘minot talab etadilar. Biroq, aksariyat hollarda tadbirkorlar yetarli miqdorida mol-mulkga yega

bo‘lmaganliklari sababli ular olayotgan kreditlarini izlashga ko‘p vaqt sarflashga majbur bulmoqdalar. Bizningcha, korxonalarda banklar tomonidan kafolat berish axamiyatini kengaytirilishi maqsadga muvofiqdir.

Xozirgi kunda banklarda o‘z muddatida qaytarilmagan kreditlarni undirish masalasi yeng dolzarb muammolardan biri xisoblanadi. Muddati o‘tgan kreditlarni undirish muammosi birinchi navbatda, bank va mijoz o‘rtasida tuziladigan shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirishni taqazo yetmoqda. Shartnomaviy munosabatlar maxsus lokal qonun kuchiga yegadir. Shu sababli, kreditlar bo‘yicha to‘lovlarni tug‘ridan-tug‘ri ya’ni sudlarning aralashuvisiz tasarruf yetishlarini belgilab qo‘yilishi maqsadga muvofiqdir.

Muammoli kreditlarni kelib chiqishining asosiy sababi bu mijoz tug‘risida malumotlar yetishmasligi yoki uning tuliq shakllanmasligidir. Bugungi kunda faoliyat yo‘ritayotgan “Banklararo kridit byurosiga” banklar tomonidan malumotlar berish ixtiyoriy bo‘lib, malumot mijozning xoxishiga binoan beriladi. Taklifimiz kichik biznes subektlari Respublikaning qaysi xududida qaysi maqsadda bo‘lmasin uning kredit tarixini shakklantirish uchun kredit buyurosiga tijorat banklari tomonidan malumotlar majburiy ravishda berib borilishi kerak.

Respublikamizda bozor munosabatlari va iqtisodiyot amaliyotga joriy yetilsa, albatta o‘zining ijobiy samarasini beradi deb xisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Toshkent, "O'zbekiston" 2003
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik kodekisi, Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 2003.
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. 2008.
4. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun. O'zbekiston Respublikasi Vaairlar mahkamasi. 1996 yil 30-avgust.
5. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobing milliy standartlari. O'zBAMA nashriyot axborot markazi. Toshkent. 2002.
6. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonun. Toshkent. 1992 yil 9- dekabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori "Xo'jalik yuruyuvchi subyektlarning xarajatlarini hisobga olish va moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida" 2003 yil 15-oktyabr. 444-sonli. O'zbekiston Respublikasining Moliyaviy qonunlari 12. 7-15-betlar.
8. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar mahkamasi 1999 yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilantasdiqlangan "Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllanirish tartibi to'g'risida"gi Nizom Toshkent. 2007-yil. 32 bett.
9. Karimov I.A. Lahon miliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: "O'zbekiston", 2009 56 bett.
10. Karimov I.A. Erishgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yolidan izchil boorish-asosiy vazifamiz. Xalq so'zi. 2004 yil 10-fevral.
11. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish-taraqqiyotimizning muhim omillardir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinganing 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi maruzasi. Qashqadaryo gazetasi 2010 yil 10-dekabr.
12. Karimov I.A. Mamlakatimizda demagratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining Qo'shma majlisidagi maruzasi.2010 yil 12-noyabr. // Turkiston gazetasi 2010 yil 13-noyabr.
13. Karimov I.A. Barcha reja va dsturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustivor yo'nalishlarga bag'ishlangan majlisidagi maruzasi. 2011 yil 21-yanvar. //O'zbekiston ovozi gazetasi 22-yanvar 2001yil.

14. Abdullayev A. Buxgalteriya hisobi: II-nashr. Yangi hisoblar rejasi asosida tuzildi, Y.:Minoj,2002 yil, 191-bett.
15. Abdullav A. Qosimov I, Ergashev A. Buxgalteriya hisobi nazariyasi, T.: “Sharq” 2003.
16. Bobajonov O. Moliyaviy hisob. Darslik T.: “Sharq” 2000 480-bett.
17. Vohidov S.V. Boshqa tarmoqlarda Buxgalteriya hisobining xususiyatlari o’quv qo’llanma.-T.: TDIU. 2004 310-bett.
18. Vahobov A., Ibrohimov A. Moliyaviy tahlil T.:”Sharq” 2002 310-bett.
19. Do’stmuratov A.D. „Audit asoslari”- T.:O’zbekiston milliyensiklopediyasi, 2003 518-bett
20. IbragimovA., Ochilov I., Qoziyev I., Ro’ziyev N. „Moliyaviy va boshqaruv hisobi” O’quv qo’llanma.-T.: “Iqtisod-moliya” 2008 444bett.
21. Ostanaqulov M. „Buxgalteriya hisobi nazariyasi” –T.: “O’zbekiston” 1993 496-bett.
22. Pardaev M.Q. „Iqtisodiy tahlil nazariyasi” darslik. “Zarafshon”nashiryoti Samarqand 2011 272-bett.
23. Hasanov B.A. Xoshimov A.A. „Boshqaruv hisobi, darslik, „Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston milliy kutibxnasi” nashyoti- Toshkent. 2005
24. Qasgqadaryo viloyati Nishon tumani “Qorako’lchilik-naslchilik” qishloq xo’jalik kooperativi (shirkat xo’jaligi) matiriallari.

Internt saytlari

1. www.navod.uz
2. www.cer.uz
3. www.pravo.uz
4. www.uzlash.uz